

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

XASANOVA MAXMUDA TIXTAYEVNA

TALABALARINING IJTIMOIIY KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

MONOGRAFIYA

Toshkent-2025

M.T.Xasanova // “Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” Monografiya//Toshkent-2025, 120-bet

Tuzuvchi:

M.T.Xasanova -

Toshkent Davlat tibbiyot universiteti Pedagogika
va psixologiya kafedrası kata o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Sh.T. Xasanova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika
universitet professor v.b (PhD)

M.U. Dexkonova

TDTU Tarmoq markazining “Ta’lim
texnologiyalari” kafedrası mudiri, p.f.n.

Ushbu monografiyada talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini oshirishning pedagogic imkoniyatlari didaktik jarayon davomida o'zini-o'zi nazorat qilishi, ijtimoiy ahamiyatli va vaziyatlarni egallash, ta'limiy maqsadlarga mos muammoli vaziyatlarni tashkil etish hamda sinergetik, fenomenologik va aksiologik yondashuvlarning integrativ xususiyatlarini tashkiliy jihatdan yaxlitlash asosida aniqlashtirilgan, talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini oshirish modeli kommunikativ mobillikni oshirishga yo'naltirilgan axborotlar bilan ishlash izchilligiga erishish, o'z – o'zini rivojlantirishga yordam berish, milliy va umummadaniy tayanch bilimlarini hamda motivga ega qobiliyatini innovatsion ta'lim muhitiga bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

	KIRISH.....	4
I BOB	TALABALARNING IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1§	Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik tamoyillari.....	12
1.2 §	Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jihatlari.....	29
1.3§	Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bosqichlari.....	46
II BOB	TALABALARNING IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIKASI.....	62
2.1§	Talabalarning ijtimoiy kompetensiyasilarini rivojlantirish didaktik mezonlari.....	62
2.2 §	Talabalarning ijtimoiy kompetensiyasilarini takomillashtirish texnologiyalari.....	72
2.3§	Talabalarning ijtimoiy kompetensiyasilarini rivojlantirish modeli.....	92
III BOB	TALABALARNING IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI....	112
3.1§	Talabalarning ijtimoiy kompetensiyasilarini takomillashtirishning tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayoni	112
3.2§	Talabalarning ijtimoiy kompetensiyasilarini takomillashtirishning tajriba-sinov ishlari.....	122
	XULOSA.....	143
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	146

KIRISH

Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy madaniy ma'rifiy kompetensiyalarini rivojlantirishning kreativ didaktik modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bo'lajak talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlik va ijtimoiy ma'suliyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir tizimli tadqiqot ishlari o'tkazilmoqda.

Dunyodagi ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida shaxsning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon yoshlarning tafakkuri, ongi va mafkuraviy immunitetini shakllantirish lozim.

Respublikamizda so'ngi yillarda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun ma'suliyatini o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor va shijoatli yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida talabalarning tashabbuslarini to'g'ri yo'naltirish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish jarayonining me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Jismonan sog'lom, ruhiy va ¹intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" ishlari belgilangan.

¹ O.T. Abdug'aniyev. Pedagogical Conditions And Mechanisms of Development of Social Active Civil Gompentence In students. Turkish Journal of Computer and Mathematics Edugation. Vol.12 No.7 (2021) 433-442

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-637 son “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada olib boriladi.

I BOB. TALABALARNING IJTIMOIIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1 Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari

Hozirgi kunda yuksak ma'naviyatli kadrlar tayyorlash borasidagi ilmiy-nazariy manbalar tahlili va tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, ma'lum bir jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshirilayotgan ma'naviy -ma'rifiy tadbirlarning pedagogik mazmuniga bog'liqdir. Lekin odamzot tafakkurining yuksak va yorqin namoyon bo'lgan bunday yutuqlarni ayni paytda katta kuch-quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan ayrim siyosiy kuchlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganligini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Odamlarning, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma'naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urunishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda[11, b].

Inson e'tiqodsiz, g'oyasiz, fikrlarsiz yasha olmaydi. Har tomonlama barkamol shaxs va uning e'tiqodi masalasi muhim muammolardan bo'lib, uning shakllanishi mohiyatan ijtimoiy omillarga bevosita bog'liq, deb qaraladi. Bu masalaga e'tiborning ortib borayotganini boisi shundaki, shaxsdagi mafkuraviy immunitetning shakllanishida undagi ezgu g'oya va iymon-e'tiqod muhim ahamiyatga egadir. Agar biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dunyoqarashini bolalikdan

yuqori saviyada shakllantira olsak, ular ma'naviyati boy, mustaqil fikrli va oliyjanob shaxslar bo'lib kamolga etadi. Shu ma'noda shaxs e'tiqodli, undagi barqaror va teran fikr, tasavvurlar, bilimlar majmuasi, mafkuraviy dunyoqarash hamda milliy g'oyalar aslida ana shunday e'tiqodlar asosida shakllanadi.

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillardan biri "Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligini, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat" sifatida alohida to'xtalib o'tilishining o'zi bizning oldimizga ulkan vazifalarni yuklaydi.[13]. Shunday ekan yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taradi.

Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi[15,b].

Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish jamiyat institutlari, jamoat tashkilotlari, me'yor va qoidalari ta'siri ostida ijtimoiylashgan va jamiyatning siyosiy sohasiga nisbatan qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligini ifodalovchi, shaxsning faoliyat ko'rsatkichi, kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy masalalari to'g'risida Y.V.Podlesnayaning "Zamonaviy jamiyatda

fuqarolik kompetentligi: mavzusidagi tadqiqot ishi ham alohida o'rin egallaydi[119,b]. Olim o'z tadqiqotida fuqarolik sifatlarini takomillashtirishda jamiyatning siyosiy hayotida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni chuqur tahlil qilib o'tganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, darsliklardagi metodologik apparatning mukammal emasligi, ta'lim oluvchilarni motivlashtirish elementlarining sayozligi, o'quv materiallarini taqdim etish bir xilligi ta'lim oluvchilar faoliyatining samarasizligiga olib keladi. Bugungi kunda darsliklar va o'quv-metodik majmualarning hozirgi avlodni ko'rib chiqish, ya'ni ta'lim sohasidagi barcha ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondiruvchi bo'lishini ta'minlash ta'lim sifatini rivojlantirishning, zamonaviy va samarador ta'lim muhitini yaratish xalq ta'limi tizimi boshqaruvining eng asosiy, dolzarb vazifalaridan ekanligi barchamiz bilamiz. Bu vazifalarni amalga oshirish jadal davom etmoqda. Darsliklar va o'quv-metodik majmualar nafaqat informativ funksiyalari, balki eng asosan, ta'lim jarayonini tashkil etishga, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashlarini ta'minlashga, ta'lim-tarbiya jarayonida faol, interfaol va h.k. zamonaviy ta'lim shakllaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishiga erishish yo'lida harakatlar amalga oshirilmoqda. Darsliklarda o'quv-uslubiy majmualardagi ta'lim mazmunini tanlashda didaktik printsiplarga tayanish, ta'lim maqsadlari tizimini amalga oshirilishini belgilashh, o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishga motivlashgan, yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlashga erishish lozim.

Darsliklar ta'lim oluvchilarning ilmiy dunyoqarashini, insoniy fazilatlarini, ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga, o'qishga o'rgatish,

muammolarni hal etish, o'z oldiga qo'ygan ijtimoiy maqsadlarga erishishni ta'minlash funksiyalarini bajarishi zarur. Mazkur kategoriyalarni amalda bajarish, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga jadal sur'atlar bilan kirib kelishi va tobora takomillashib borishi esa o'quv jarayoniga elektron didaktik vositalarni yaratishga, uni tatbiq etishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Elektron didaktik vositalar zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangitdan saqlash, bilimlarni interfaol usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniga ega manba hisoblanadi. Elektron didaktik vositalar o'quvchilarning tasavvurini ko'paytirishga, oldingi bilimlarini takomillashtirishga va qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak lozim [28,b].

Kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim modeli zamonaviy darsliklar, o'quv-uslubiy majmualar, elektron didaktik ko'rgazmalarning asosiy xizmatini qayta ko'rib chiqishga asos bo'lmoqda.

Bular:

- ilmiy dunyoqarashni, shaxsiy fazilatlarni, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni shakllantirish, o'qishni o'rgatish, muammolarni oldini olish, o'z oldiga qo'ygan ijtimoiy maqsadlarga erishishni ta'minlash;
- ta'lim oluvchilarni ilmiy-texnik taraqqiyot vositalarini anglashga, ulardan foydalanishga, tahliliy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil o'quv-o'zlashtirish va tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi va malakalarini takomillashtirish.

Zamonaviy darsliklar, o'quv-metodik majmualar va elektron didaktik vositalar quyidagilarga asoslanishi lozim:

- didaktikaga (o'quv predmetining fundamental bilimlarining bayoni). Psixologiyaga (darslikda ta'lim oluvchilarning psixofiziologik xususiyatlarining inobatga olinganligi);

- metodikaga (metodologik apparat, ta'lim beruvchilarga ta'lim texnologiyalarining barcha turlaridan foydalanish imkoniyatini berishi).

Darsliklar, o'quv-metodik majmualar va elektron didaktik vositalarning o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

- paragraf avvalida pedagogik maqsadlarning va ushbu maqsadlarga erishishning mexanizmi (algoritmi, texnologiyasi) to'g'ri qo'yilishi;

- talabalarni o'quv predmetiga qiziqishi va motivatsiyani kuchaytirishga yo'naltirilgan usullarning ustuvorligi;

- matnlarning tushunarliqligi, talabalarni interfaollikka undashlik, muloqotlilik;

- o'quv materialining differentsiyalangan holda taqdim etilishi;

- talabalarining mustaqil ishlashlarini ta'minlashga yo'naltirilgan, ularning ijodiy va tadqiqotchilik malaka, ko'nikmalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv vazifalari tizimining borligi;

- o'quv predmeti mazmunidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya ishlari yo'nalishi bo'yicha metod va usullar mavjudligi;

- o'z-o'zini va atrofdagilarni nazorat tizimi;

- ta'lim jarayoni ishtirokchilarini hamkorlikka undovchi resurslar.

Xalqaro tajribalarning ko'rsatishicha, kommunikatsion axborot-ta'lim muhitining amaliyotga joriy etilishi ijobiy pedagogik natijaga olib keladi. Turli shaharlar, mintaq va davlatlar ta'lim oluvchilarining

tarmoqdagi birgalikdagi o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli elektron, axborot-didaktik vositalar hisoblanadi. Shuning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'qitish va tarbiyalashga bo'lgan yondashuvlar ko'pchilik ilmiy tadqiqotlar va davlat dasturlarida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Asilova G. o'z tadqiqotida "kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim oluvchilar tomonidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida amalda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir" deb ta'kidlagan [62-B.18-b].

Xodjayev B.X. "Kompetentlik yondashuv doirasida ta'limning uchta an'anaviy elementi bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga yana uchta unsurlar: amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya, kompetentlik"ning ilgari surilishi haqida to'xtalib o'tgan [152,82 b.].

Urazimbetova A.U. boshlang'ich sinf o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarni aniqlangan [172].

Xorijiy mamlakatlarda olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda "kompetensiya" kategoriyasi kiritilganidan boshlab, kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini ajratish ustida asoslar yaratildi. Mashhur britaniyalik psixolog Raven Dj. nomi bilan bog'laydilar, u o'zining "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli ishida kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining pedagogik-psixologik jihatlariga to'xtalib o'tgan [123, 281b.].

Mazkur tushuncha "ko'p sonli komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqil, ayrim

komponentlar ko'proq kognitiv sohaga, boshqalari esa emotsional sohaga taalluqli, mazkur komponentlar samarasi xulqni tashkil qiluvchilar sifatida bir-birini to'ldirish mumkin" deb ta'kidlagan. Ushbu tushunchaga Dj.Raven [123, 296-b] "kompotentlik ko'rinishlari", "motivga ega qobiliyatlarning" mohiyati deb ta'kidlaydi. Shu tariqa Dj. Raven tomonidan kompotentligining psixologik nazariyasi yaratilgan bo'lib, unga ko'ra kompetentlik biologik irsiyatga, qobiliyatlar va boshqa individual xususiyatlarga bog'liq bo'lgan inson psixikasining mahsuli hisoblanadi, uning rivojlanishi esa yashash muhitiga bog'liqdir (maktablar, oilalar, ishchi jamoa, do'stlar va h.k.) deb ta'kidlab o'tgan. Dj. Raven [124, 253 b] kompetensiyaning mazmun-mohiyatini tadqiq etar ekan, "motivatsiya", "maqsadni belgilash", "xulq" tushunchalariga tayanadi va ular o'z navbatida inson qadri, uning axloqiy majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. U kompetensiyalarning 37 ko'rinishini ajratib ko'rsatgan bo'lib, ular samarali xulqning tashkiliy elementlari hisoblanadi.

YUNESKO tomonidan to'plangan materiallarda barcha olimlar ta'limning istalgan natijasi sifatida qaralishi kerak bo'lgan kompetensiyalar doirasini belgilashda va asosiy kompetensiya tushunchasini ta'limga kiritiladi.

YUNESKO tomonidan tashkil etilgan yig'ilishda W. Hutmacher kompetensiya va kompetentlik tushunchasining o'zi mazmunan aniqlanganmaganligiga e'tiborni qaratgan, ammo u barcha tadqiqotchilar o'z tadqiqotida "nimaligini bilaman" tushunchalar maydonidan ko'ra "bilaman, qanday" tushunchalar maydoniga yaqinroq ekanligini ta'kidlaydi va ularni zamonaviy jamiyatda inson ijtimoiy hayotining

to'g'ri ifodalanishini umumiyroq va kengroq ta'rifi sifatida qaraydi [51].

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishini zamonaviy bosqichida kompetentlik va kompetensiyalar tizimi orqali hosil qiluvchi tushunchalarni aniq ifodalashga urinishlar amalga oshiriladi.

B. Gershunskiy kompetensiya tushunchasini inson faoliyatining kasbiy sohasiga nisbatan o'rgangan bo'lib, u "kasbiy ta'lim darajasi, insonning tajribasi va individual xususiyatlari, uning uzluksiz mustaqil ta'limga motivli intilishi va o'z -o'zini takomillashtirishi, ishga ijodiy va mas'uliyatli munosabati" bilan belgilanadi. U kasbiy kompetensiyani savodxonlik, ma'lumotlilik, kasbiy kompetensiya, madaniyat va mentalitetdan tashkil topgan ta'lim samaradorligining strukturaviy bo'g'inini tashkil etuvchilaridan biri sifatida qaragan [20-B.12].

I. Frumin kompetensiyani ma'lumotlar va malakalarning oddiy kombinatsiyasi sifatida qaralmaydigan va haqiqiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan ta'limiy natijaning yangi turi sifatida talqin qilgan. Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning yo'nalishlarini u asosiy kompetensiyalar, umumlashgan predmetli ko'nikmalar, amaliy predmetli ko'nikmalar va hayotiy malakalar deb atagan va ular orasida eng muhimi asosiy kompetensiyalar g'oyasi hisoblanadi deb ta'kidlagan [147,38 b].

Kompetensiya tushunchasini L. Davidov bir aniq (kasbiy) vazifani bajarishni ta'minlovchi o'zaro aloqador va o'zaro bog'liq bilim, ko'nikma va malakalar guruhi sifatida qaraydi [23, 120 b.].

A. Delgas o'z tadqiqotida kompetensiyani "shaxsiy o'z-o'zini amalga oshirishga ko'maklashuvchi bilim, ko'nikma, malumotlilikning

mavjudligi, olamda o'z o'rnini topish usuli bo'lib, uning oqibatida ta'lim yuqori motivatsiyali va shaxsiy imkoniyatlarning maksimal talab etilganligi ta'minlovchi sifatida namoyon bo'ladi, atrofdagilar tomonidan shaxsni tan olish va uning o'z ahamiyatligini anglashi" sifatida ta'riflaydi [77].

X.M. Tojiboyeva ilmiy tadqiqot ishida ijtimoiy talabalarning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko'rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etgan. Ijtimoiy faollik me'yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir. Talabalarning ijtimoiy faolliklarini oshirish ular o'rtasidagi ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayoni deb ta'kidlab o'tgan [138, 13 b].

N.N.Djamilova "tashabbuskorlik o'quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi g'oya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik" deb ifodalagan. Talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishida ularning tashabbuskorligi, mas'uliyatliligi, qatiyatlilik kabi sifatlar rivojlanishida muhim omil hisoblanadi [79,13,14 b].

Q.Q.Quronboyev o'z tadqiqotida "talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini takomillashtirishning uslublari va mazmuni, pedagogik asoslari, ma'naviy-axloqiy muammolar, yoshlar ta'lim-tarbiyasida ongli intizomning o'rni, burch va ma'suliyat, jamoatchilik sifatlarini tarkib toptirish" masalalariga to'xtalib o'tgan [95, 59 b].

V.Sh. Shermuhammadov tadqiqotida "yoshlardagi ijtimoiy faollik qobiliyatlari, salohiyati ilmiy-amaliy jihatdan o'sish imkoniyatlarini oldindan aniqlash, ijodiy fikrlash" masalalari ifodalangan [159, 37, 53b].

L.B.Axmedova talabalarning didaktik-metodik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan [173 b].

Mamlakatimiz va xorij olimlari ijtimoiy kompetensiyasini takomillashtirish quyidagi muammolarning ishlab chiqilishi bilan bog'liq ravishda o'rganiladi:

Ta'limni insonparvarlashtirish (Kaykovus [39], A.Avloniy[71], E.Yusupov[50], O.Musurmonova[42], N.M. Egamberdiyeva[163], A.Begmatov[18], A.D.Aliyarov [59], Ye.V.Bondarevskaya [69], I.A.Zimnaya[27-29], M.S.Kagan[90], V.D.Shadrikov[157] va bosh.)

Zo'ravonlik qilmaslik va tolerantlik (Xusayn Voiz Koshifiy[47], M.Mamajonov[100], J.G'. Yuldoshev [167], N.D. Qosimova[93], Yu.M. Orolova[113]);

Shaxs shakllanishi, moslashuvchanlikning va o'z-o'zini aktuallashtirishning muayyan darajasiga erishish (G'. B. Shoumarov[202], E.G.G'oziyev[38], S.N.Jo'rayeva[83], Z.T.Soliyeva[136], S.Abulxanova[169] va b.q.)

O. Musurmonova ta'lim-tarbiyada axloqiy ong, vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi insoning fe'l-atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi. Axloqning mag'zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, baynalmilalchilik vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e'tibor, burch hissi hamda kamtarlik ko'zbo'yamachilik va yolg'izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni o'z tadqiqotlarida ifodalagan[42.-B.28].

N.M. Egamberdiyeva ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish masalalariga to'xtalar ekan: "ta'limni insonparvarlashtirish uning

etakchi tendensiyasi sifatida ta'limni insonga qaratish, uning individualligini namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishni ifodallaydi. U insonni yuqori ehtiyojlari: o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'zini realizatsiyalash, ma'naviy ijtimoiy va kasbiy shakllanishida maksimal darajada qoniqishga yo'naltirilgan o'z noyobligini yo'qotish, hayot, tabiat dunyosi va madaniyatdan begonalashib ketish xavfidan himoyalalanishga undash" kabi masalalarni tadqiq qilgan [163,85 b].

J.B. Mamadiyorov bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-amaliy internativ yondashuv asosida takomillashtirgan[100].

S. Jo'rayeva yosh avlod masalasiga to'xtalar ekan: "yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o'zlarini mas'ul sezib, daxldorlik tuyg'usi" ni o'zida his qilishi to'g'risida to'xtalgani, har qanday jamiyatda yosh-avlod tarbiyasi turli davrlarda ham muhim o'rin egallaydi [38].

A.Begmatov ta'lim jarayonida shaxs faolligi "jamiyat manfaatlari bilan shaxs manfaatlari o'rtasida uyg'unlik mavjud bo'lsa, bunday holat shaxsni jamiyat manfaatlari yo'lida, demak, shu orqali, o'z manfaatlari yo'lida ham jonbozlik ko'rsatishga undaydi" deb, inson tarbiyasida insonparvarlik tamoyilining o'rni yuqoriligi masalasiga to'xtalib o'tgan [18,64 b.].

Sh.N.Muslimov bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetetligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari aniqlangan. [167].

Z. T.Soliyeva tadqiqot ishida talaba shaxsining ma'naviy madaniyatini takomillashtirish masalalariga to'xtalar ekan: "talabalarni biologik va psixik, ijtimoiy va ma'naviy, anglash va o'z-o'zini anglash,

ratsional va irratsional birlik sifatida tushunish; pedagogik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi, individual munosabatda bo'lishni talab etuvchi shaxs deb qarash; bunda yuksak ijtimoiy qadriyatlarning inson shaxsini rivojlantirishdagi o'rni, har bir talabanning individualligi va takrorlanmas ekanligi hurmat qilinishi; uning ijtimoiy huquq va erkinliklari e'tirof etilishi" kabi masalalariga to'xtalib o'tgan [136,14 b].

Shaxsning fuqaro bo'lib shakllanishining uchta bosqichini ajratib ko'rsatadi va "Fuqarolik ta'limi" fani natijasi sifatida fuqarolik kompetensiyasini baholash imkoniyatini asoslaydi: shaxsning fuqarolik huquq va majburiyatlarini hamda mamlakat tarixini bilishi; uning fuqaro sifatida o'ziga, fuqarolik jamiyatiga va davlatga, fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga munosabat tizimi; fuqarolik burchi va fuqaroning majburiyati, fuqarolik jamiyatida davlatning manfaatlariga, shaxsning fuqarolik xulqi; shaxsning fuqarolik qadriyatlari va ishonchiga to'xtalib o'tilgan.

Demak, shaxsning sub'ektiv sifati rivojlanishi ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishda bilimlarni sof individual o'zlashtirishini hisobga olish, o'qitishning sub'ektiv motivlari, o'qitish predmetiga munosabat, ta'lim oluvchining qobiliyatlari, shaxsiy sifatleri va tajribasiga bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish zarurati ijtimoiy kompetensiyasini takomillashtirishda individual yondashuvga murojaat etishiga e'tibor qaratilgan.

Talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish metodologik asoslarini yaratilgan. Shu asosda talabalarning kompetensiyalarini takomillashtirish metodologiyasi dolzarb hisoblanadi.

1.2 Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jihatlari

Talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” nomli (kompyuterli tizim yaratildi).

Ishlab chiqilgan tizim talabalar qalbi va ongiga ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelining tarkibiy qismlari mazmun mohiyati to‘g‘risidagi bilimlarini boyitishda mustahkam vosita bo‘ladi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, maxsus tarbiyaviy kurslarni tashkil etishda mavjud o‘qitish texnologiyasi, uslubiyoti tubdan qayta ko‘rib chiqilishi, ularni o‘rganishni tashkil etish bo‘yicha ta‘lim-tarbiyaning maxsus mustaqil intellektual (kompyuter) tizimi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu tizimni uzluksiz ta‘lim tizimiga samarali tatbiq etish bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Tarbiya jarayonini tashkil etishda oila, mahalla, turli ta‘lim tizimi, tashkilot va muassasalar, jamoat tashkilotlarining ishtirokini ta‘minlash, ularning mas‘uliyati va javobgarligini zamon talablari darajasida ko‘tarish;

O‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy faol kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish talablarini, uning mazmunini, shakllarini ilmiy asoslangan holda yaratish, shuningdek bu borada tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, baholash uslublarini ishlab chiqish;

barcha talabalar ma'naviy kamolotining o'sish dinamikasi bo'yicha monitoring tizimini ijtimoiy faol shaxsga qo'yiladigan talablar asosida ishlab chiqish va amalga tatbiq etish;

Talabalarning shaxs bo'lib shakllanganlik darajasini aniqlovchi psixodiagnostik uslublarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

talaba o'zini-o'zi tarbiyalashning ijtimoiy, pedagogik va psixologik yondoshish;

Xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligini inobatga olgan holda talabalarning ma'naviy va axloqiy fazilatlariga qo'yiladigan talablar majmuasi negizida axborot texnologiyalari asosida texnologiyasini ishlab chiqish;

Ta'lim oluvchilarning hisoblangan bakalavriat talabalarining individual va takomillashtirish qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlarini inobatga olib tarbiya jarayonini tashkil etish.

Umuman olganda oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilari bugungi kunda yoshlarning juda kam qismini tashkil etishni e'tiborga olsak, ushbu bitiruvchilarni yuqorida qayd etgandek qilib ta'lim va tarbiya berib tegishli tashkilotlar va muassasalariga yuborar ekanmiz, ular joylarda har xil diniy va ekstremistik oqimlarga, dunyoqarashga, axborot xurijlariga qarshi milliy g'oya va mafkuraga mos holda atrofdagilarni shu oqim va begona g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik uchun tashviqot - targ'ibot ishlarini olib borishga tayyorlash asosiy maqsadimiz bo'lishi zarur.

Buning uchun albatta ularning o'zi ma'lum miqdorda ushbu jarayonlar bo'yicha ilmga va tarbiyalanganlik darajasiga ega bo'lishini taqozo etadi. Bularning ushbu talabga javob berishlari uchun ularni

taklif etayotgan tarbiya texnologiyalari orqali ularni ham ilmiy, ham tarbiyalanganlik darajasini oshirishimizni taqozo etadi. Buning uchun esa tavsiya etilgan metodlar asosida talabalarda ilm va tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirish uchun o'quv - tarbiya jarayonini tashkil etish kerak. Bunda beriladigan ilmni ham, tarbiyalanganlik holatini ham kompyuterlarda tayyorlangan dasturlar asosida o'rgatishni va nazoratga olishni tashkil etish zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrini keltirib o'tmoqchimiz Yoshlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb - hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash kata ma'suliyat bo'lgan masala hisoblanadi[14].

Ta'lim oluvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini takomillashtirish metodikasini takomillashtirish modelining tarkibiy qismlarining mazmun mohiyati asosida tarbiyalab targ'ibot - tashviqot ishlarga tayyorlash, ulardagi pedagogik va tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon qilish, bu borada quyidagilarni bilishi va uddalay olishi lozim. Jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy fikrini, dunyoqarashini, munosabatlarini to'g'ri shakllantira olish. Bildiriladigan turli-tuman fikr va mulohazalardan eng to'g'ri, optimalini tanlab, uchragan noto'g'ri fikr, tushuncha, mulohazalar ta'sirini susaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Turli ko'rinishdagi fikrlarni, qarashlarni va munosabatlarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni ijtimoiy kompetensiyasini takomillashtirish modelining tarkibiy qismlarning mazmun mohiyati mos holda, ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan harakatlarni jipslashtirish

va tashkillashtirish hamda yo‘l boshlovchi kuch sifatida namoyon bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola olish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslarni, bitiruvchilarini tayyorlashni taqozzo etadi. Shunday ekan oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga o‘zlariga tegishli tarbiyalanganlik darajasi bo‘yicha baholarni qo‘yib hayotga, ishlab chiqarishga va boshqa jabhalarga yo‘llash hamda ishga yoki ta‘limning keyingi bosqichida qabul qilishda albatta ushbu tarbiyalanganlik darajasiga e‘tibor qaratilishini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir[33 b].

Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish demokratik qadriyatlar va shaxsning alohida sifatlarini shakllantirish uchun xorijiy pedagoglar tomonidan ko‘pgina darsdan tashqari amaliyotlardan foydalanib ko‘rsatilgan: yosh avlod tarbiyasida demokratik institutlarning roli muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning xotiralari muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Xotiraning ikkala shakli -ixtiyoriy va ixtiyorsiz boshlang‘ich maktab yoshida shunday sifatli o‘zgarishlarga uchraydi, buning natijasida ularning yaqin aloqalari va o‘zaro o‘tishlari yo‘lga qo‘yiladi. Xotiraning har bir shaklidan bolalar tegishli sharoitlarda foydalanishi juda muhim (masalan, matnni yodlashda asosan ixtiyoriy xotira ishlatiladi). Bilish faollik tufayli barcha xotira jarayonlari jadal rivojlanadi: ma‘lumotlarni yodlash, saqlash, ko‘paytirish. Shuningdek, xotiraning barcha turlari: uzoq muddatli, qisqa muddatli, operatsion. Xotiraning rivojlanishi o‘quv materialini yodlash zarurati bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra, ixtiyoriy yodlash shakllanadi. Bu nafaqat nimani eslash, balki qanday eslab qolish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Q.Qodirov bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malumotlar bazasini yaratish kompetentligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirgan[177].

Talabalarning yoshiga xos fikrlash asosiy funksiyaga aylanadi. Buning yordamida fikr jarayonlari jadal rivojlanib tiklanadi. Maktabgacha yoshda vizual-majoziy shakldan og'zaki mantiqiy fikrlashga o'tish nihoyasiga yetmoqda. Bolada mantiqiy ravishda to'g'ri fikrlash mavjud: fikrlashda u operatsiyalardan foydalanadi. Maktab ta'limi og'zaki - mantiqiy fikrlash ustuvor takomillashtirishga imkon beradigan tarzda tuzilgan.

Kontseptual fikrlash va aqliy operatsiyalarning elementlari shakllantiriladi - nazariy tarkibni tegishli ravishda qayta ishlash uchun zarur bo'lgan tahlil, sintez, taqqoslash, guruhlash, tasniflash, mavhumlashtirish. Amaliy tahlil ustunlik qiladi. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilarga o'quv muammolarini hal qilish oson, bu erda siz obyektlarning o'zlari bilan amaliy harakatlardan foydalanishingiz yoki obyektlarni qismlarini vizual qo'llanmada ko'rib chiqish orqali topishingiz mumkin.

Bilish jarayonini o'z ichiga quyidagilarni oladi: idrok, e'tibor, xotira, tasavvur va fikrlash. Keling, boshlang'ich maktab yoshiga xos bo'lgan bilim jarayonlarining namoyon bo'lishini tavsiflaymiz.

Idrok. Idrok tushunchasi lotin tilida "persiptio" qabul qilish, idrok deb nomlanadi, uning yuqori bosqichi esa "appersepsiya" deyiladi. Idrokning muhim tomoni - bu uning xususiyatlarining turli jabhalar, vazifalar, sharoitlarda namoyon bo'lishidir. Idrokning muhim xususiyati

bu ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Mumiy qilib aytganda idrok - tirik organizmning ma'lumotlarni qabul qilib qayta ishlash jarayoni. Doimo talabalarning idrok qilish faoliyati uning o'zlashtirgan bilimlari, to'plagan tajribalari, shuningdek, murakkab analitik - sintetik harakatlar tizimi zahirida yuzaga keladi. Bu holat idrok qilishni zarur bo'lgan o'quv fani mohiyatiga bog'liq ilmiy faraz yaratish, uni amalga oshirish borasida qaror qabul qilish, yaqqol voqelik bilan tasavvur qilinayotgan o'zaro mosligini aniqlash singari bosqichma-bosqich, o'zaro bir-birini taqozo etuvchi tarkibiy qismlaridir.

Muayyan sharoitda o'quvchi idrok qiladigan narsa yoki rasm idrokning obyekt deb ataladi. Idrok qilinadigan narsa uni o'rab turgan boshqa narsa, jism yoki hodisalarga nisbatan obyekt hisoblanib obyektning atrofida qilar esa fon deyiladi. Idrokning sifati obyektning fondan tez, to'liq va aniq ajratib olish bilan belgilanadi. Idrokning predmetlilik, yaxlitligi, ma'lum tartibda tuzilishi, kotsantligi, anglanganligi, tanlovchanligi uning eng muhim xususiyatlaridandir.

Kashfiyot - izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan, yaratilgan ilmiy yangilik. Unga tabiat hodisalari va jamiyat qonuniyatlarini ongli ravishda ilmiy idrok qilish natijasida erishiladi. Kashfiyot tufayli moddiy dunyoning ilgari insoniyatga ma'lum bo'lmagan obyektiv qonuniyatlari, xossalari va hodisalari ma'lum bo'ladi.

Kashfiyot insoniyatning bilish jarayoni darajasini tubdan o'zgartiradi. Kashfiyot fan-texnika inqilobining asosini tashkil etadi, fan va texnika taraqqiyotiga tubdan yangi yo'nalishlarni baxsh etadi. Inson bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilindi. Kashfiyot

bilan ixtironi bir-biridan farqlay bilish kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonuniyatlar yaratiladi, ixtiro natijasida esa muhim yangiliklar yaratilishi mumkin.

Masalan, Arximedning suv chiqarish vinti o'ta yangilik bo'lsa ham u ixtiro hisoblanadi, I.Nuyutonning butun olam tortishish qonuni esa olamshumul kashfiyotdir. Hatto ichki yonuv dvigatelining yaratilishi ham ixtiro, lekin N.Kopernikning Yerning o'z o'qi atrofida va sayoralar (shu jumladan, Yer)ning Quyosh atrofida aylanishi to'risidagi g'oyasi olamshumul kashfiyot Avtomobil va samolyotning yaratilishini ham ilmga, tabiat qonuniyatlariga asoslangan ixtiro deyish mumkin.

Lekin Galile uning qushlarning uchishiga taqlid qilib samolyotning uchish sxemasini yaratishi kashfiyot hisoblanadi. Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek yaratgan qonuniyatlar ham kashfiyotlar jumlasiga kiritiladi. Har qanday ixtiro ham kashfiyot bo'la olmaydi, lekin ixtiro kashfiyotga suyangan holda qilinadi. Atom va vodorod bombalarining kashf qilinishi Kashfiyot jumlasiga kiritish mumkin, biroq, raketalarni yasash, ixtiro qilish, hisoblanadi.

Kashfiyot ham, ixtiro ham qonunchilikda muhofazalanadi. Ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarni ro'yxatga olish, mualliflik huquqini qonunlarda mustahkamlab qo'yish davlat tizimi mavjud.

O'zbekiston kashfiyot va ixtirolarni muhofazalash ishlari bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi shug'ullanadi.

Talabalarning bilimining asosi atrofidagi dunyoni bevosita idrok etishdir. Idrokning barcha turlari o'quv faoliyati uchun muhimdir obyektlar shakli, vaqt, makonni idrok qilish. Agar biz olingan ma'lumotlarning aksini ko'rib chiqsak, unda idrokning ikki turini ajratib

ko'rsatishimiz mumkin: tavsifiy va tushuntirish. Ta'riflovchi bolalar haqiqatga asoslangan.

Ya'ni, bunday bola matnni asl nusxasiga yaqinroq takrorlashi mumkin, ammo u, ayniqsa, ma'nosini tushunmaydi. Tushuntirish turi, aksincha, asarning ma'nosini izlab, uning mohiyatini eslay olmasligi mumkin. Odamga xos bo'lgan individual xususiyatlar idrokga ham ta'sir qiladi. Ba'zi bolalar idrokning to'g'riligiga e'tibor berishadi, u taxminlarga murojaat qilmaydi, o'qigan yoki eshitgan narsalarini taxmin qilishga urinmaydi.

Boshqa individual turi, aksincha, ma'lumotni taxmin qilishni, uni o'zining oldindan o'ylangan individual fikri bilan to'ldirishni izlaydi. Yosh o'quvchini idrok qilish majburiy emas. Bolalar maktabga yetarlicha rivojlangan idrok bilan keladi. Ammo bu idrok taqdim etilgan narsalarning shakli va rangini tan olish uchun pastga tushadi. Shu bilan birga, bolalar obyektida asosiy emas, maxsus, ammo yorqin, ya'ni boshqa obyektlar fonida ajralib turadigan narsalarni ko'rishadi.

O'ylash. Boshlang'ich sinf o'quvchisi yoshida bolaning tafakkuri vizual-majoziy, shakldan og'zaki-mantiqqa o'tadi. Vizual tasvirlar va shakllarga tayanadi. Kichik maktab o'quvchilarining fikrlash faoliyati ko'p jihatdan hali ham maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashiga o'xshaydi. Ushbu bilish jarayonni tushunish uchun kichik yoshdagi o'quvchilarda aqliy operatsiyalar takomillashtirishining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish kerak. Ular tarkibiga tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va ishlab chiqish kabi komponentlarni o'zlashtirish metodikasini takomillashtirish ham kiradi.

Tahlil - bu obyektни aqliy jihatdan alohida qismlarga ajratish va undagi fazilatlarni yoki xususiyatlarni ajratish. Yosh maktab o'quvchisida amaliy va hissiy tahlil ustunlik qiladi. Muayyan obyektlar (tayoqlar, obyektlar modellari, kublar va boshqalar) yordamida bolalar uchun muammolarni hal qilish yoki ularni vizual tarzda kuzatib, obektlarning qismlarini topish osonroq bo'ladi. Bu obyektning modeli ham, obyekt yashaydigan tabiiy sharoitlar ham bo'lishi mumkin.

Sintez - oddiydan murakkabgacha aqliy zanjirni qurish qobiliyati.

Tahlil va sintez bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bola qanchalik chuqur tahlil qilsa, sintezni to'liqroq bajaradi. Agar biz bolaga fitna rasmini ko'rsatsak va uning ismini aytmasak, unda ushbu rasmning tavsifi chizilgan obyektlarning oddiy ro'yxatiga o'xshaydi. Rasm nomining xabari tahlil sifatini yaxshilaydi, bolaga butun rasmning ma'nosini bir butun sifatida tushunishga yordam beradi.

Taqqoslash. Bu narsa yoki hodisalarni ular ichida umumiy yoki har xil topish uchun taqqoslashdir. Yosh maktab o'quvchilari yorqin belgilarga ko'ra, ajablantiradigan narsalarga ko'ra taqqoslanadi. Bu yumaloq obekt yoki yorqin rang bo'lishi mumkin. Ba'zi bolalar obyektlarni taqqoslash orqali eng ko'p belgilarni ajratib ko'rsatishadi, boshqalari esa kamroq.

Umumlashtirish. Yosh o'quvchilar, birinchi navbatda narsalarning diqqatiga sazovor, yorqin belgilarini ajratib turadilar. Ko'pgina umumlashmalar aniq xususiyatlar haqida. Agar biz bolalarga turli guruhlariga tegishli bo'lgan bir qator obyektlarni bersak va ularni umumiy mezonlarga muvofiq birlashtirishni taklif qilsak, kichik o'quvchiga mustaqil ravishda umumlashtirish qiyinligini ko'ramiz.

Voyaga etgan kishining yordamisiz, vazifani bajarayotganda, u turli xil ma'noga ega bo'lgan so'zlarni bitta guruhga birlashtirish mumkin. Umumiy tushunchalar tushunchalarda belgilanadi. Kontsepsiyalar obyekt yoki hodisaning muhim xususiyatlari va atributlari to'plamidir.

Konkretlash. Fikrlashning ushbu tarkibiy qismi umumlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Bola hayot davomida tushunchalar, qoidalar, qonunlarni o'zlashtirishni o'rganishi kerak. Bu alohida obyektlarni yoki ularning qismlarini, belgilarini, sxemalarini ko'rib chiqish va eng muhimi, ular bilan bir qator operatsiyalarni bajarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Agar bola umumiy xususiyatlarning faqat bir qismini bilsa, unda konkretizatsiya ham qisman bo'ladi.

Xayol. Bu insonning tajribasida allaqachon mavjud bo'lgan narsalarga tayanib, yangi tasvirlarni yaratish qobiliyatidir. Yosh o'quvchining tasavvurini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalish bu voqelikni o'zlashtirish jarayonida olingan hayotiy tajriba va bilimlar asosida voqelikni yanada to'g'ri va to'liq aks ettirishga o'tishdir. Boshida, boshlang'ich maktab yoshi shundan iboratki, qayta tiklangan tasvirlar haqiqiy obyektni deyarli tavsiflaydi, ular tafsilotlarida kambag'aldir. Bundan tashqari, tasavvur rivojlanadi va bolalar allaqachon tasvirlarni yaratishda, ularda ko'proq belgilar va xususiyatlardan foydalanadilar.

1.3. Ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bosqichlari

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘risida” gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur kontsepsiya Mustaqil O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar bugun jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishidan dalolatdir. Shu nuqtai nazardan Yurtimizda ilm-fan va ta’lim sohasi rivojiga davlat siyosat darajasida e’tibor qaratilib, ta’limni tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda [5 b].

Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagoglikni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish. Ekstremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos ijtimoiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan.

Ta'limning mazmuni zamonaviy talab bo'yicha besh muhim tarkibiy qismdan iborat bo'lib, har bir qismda egallanadigan bilim, nutqiy -amaliy kompetensiyalar qamrovi belgilab berildi.

1. O'quvchi egallashi zarur bo'lgan nazariy bilimlar tizimi aniqlandi.

2. Tanlangan nazariy bilimga muvofiq bo'lgan amaliy kompetensiya va malakalar tizimi. Bunda bilim - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya - mavjud nutqiy bilim, ko'nikma va malakalar integratsiyasidan ijtimoiy faoliyatda unumli foydalana bilish qobiliyati.

3. O'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rganish tizimi qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy shaklda bo'lishi mumkin. Qayta xotirlash - o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab ishlash, mashq bajarish faoliyati. Bu usulda o'quvchining faollik darajasi chegaralanib, izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi. Qisman izlanuvchanlik faoliyatida o'quvchi yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalarining o'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi, topishi, avval egallangan bilimlarni qisman ma'lum sharoitlarda qo'llashi mumkin. Ilmiy tadqiqot ishida talaba olgan bilimlarini yangi sharoitda qo'llay olishi, hech qanday tashqi yordamsiz zarur bilim manbasini topib, ulardan to'g'ri foydalanish kompetensiyalarini egallashi talab qilinadi. O'quvchining ijodiy izlanish qanchalik ko'p bo'lsa ta'limning samaradorlik darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

4. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi o'zaro hamkorlik, maqsadga intilishda yakdilikka, o'quvchi sub'ekti ustuvorligiga asoslanmog'i lozim. Ta'lim mazmuni ko'zlangan maqsad yonida erkin harakatlanuvchi til va nutq birliklari, ijodiy-amaliy kompetensiyalar zaxirasi va uni o'quvchi ongida shakllantirish usullaridan iborat bo'ladi [2 b].

Shunday qilib, agar talaba passiv bo'lsa, o'qituvchining talablariga zaif javob bersa, na qo'shma, na individual ishlarga qiziqish bildirmasa, lekin faqat o'qituvchining bosimi ostida faoliyatga qo'shilsa, u holda o'qituvchining taktikasi bu holda olib tashlangan sinflar muhitini yaratishga asoslangan bo'lishi kerak agar o'quvchida qo'rquv, tanglik hissi bo'lsa.

Talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini innovatsion faoliyatga tayorlash tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda yuqoridagilardan tashqari yana e'tibor berilishi lozim bo'lgan qator omillar mavjud. Shu sababli ham bu boradagi tadqiqotlarda har xil yondashuvlarga e'tibor qilish, talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini tayyorgarligini oshirishda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda axborot kompetentligini rivojlantirish masalasiga ham e'tibor berish ham o'ta muhimdir.

II BOB. TALABALARNING IJTIMOIIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIKASI

1.1 Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish didaktik mezonlari

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatni rivojlantirish jarayonida ma'naviy madaniyatni yuksaltirishga erishish, tom ma'noda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylandi. Talabalarda yuksak ma'naviy tafakkur shakllanmas ekan, har xil nomutanosibliklar kelib chiqaveradi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va bu bilan qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ham bebahodir. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zarur sharti qonunlarga so'zsiz quloq solish kerak. Shu vazifani amalga oshirish hamda aholining huquqiy bilim darajasi hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida 2019-yil 9-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi. Respublikamizda huquqiy demokratik davlat qurilishi, qonunchilikni mustahkam va ijtimoiy adolat qaror topishini ta'mirlash, ma'naviy va madaniy takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish, aholining huquqiy bilimi va ongini yuksaltirish, jamiyatning siyosiy faolligini oshirish, kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va jamoatchilik fikrini o'rganish borasidagi ishlarni yaxshilash maqsadida ko'pgina qarorlar qabul qilingan bo'lib, bularning hammasi talabalarni huquqiy madaniyatini rivojlanishga ishora etilgan.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga davlat Konstitutsiyasi davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish, ular ongiga ijtimoiy huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni singdirish, huquqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirishdan iboratdir. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi topshiriqlar hal etiladi:

- talabalarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar hosil qilish;

- talabalarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

- talabalarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyatning qaror topishini ta'minlash;)

- talabalar huquqiy madaniyati huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday

ko‘rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murossasiz kurashni tashkil etishni shakllantirish.

O‘zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradigan asosiy usul “hissiy munosabat” (ism-sharif, mehribonlik, mehr-oqibat ohagida va boshqalar) deb ataladi. Bunday toifadagi yosh maktab o‘quvchilari bilan ishlashda o‘qituvchi ishda zudlik bilan ishtirok etishni kutmasligi, ularga bir xil faoliyat turidan ikkinchisiga tezda o‘tishni talab qiladigan o‘quv topshiriqlarni bermasligi kerak. Javob haqida o‘ylash uchun vaqt bering, chunki ular uchun improvizatsiya qiyin. Savol berib javob berayotganda gapingizni to‘xtatmang. Tanaffusdan keyin bu bolalar intetsiv jismoniy ishdan aqliy faoliyatga juda sekin o‘tishlarini biling.

O‘quvchilarning yana bir toifasi vaziyat faol bo‘lib, faqat muayyan vaziyatlarda qiziqish va faollikni namoyon etadi, masalan, dars mazmuni bilan qiziqishganda yoki o‘qituvchi g‘ayrioddiy o‘qitish usullarini qo‘llaganida, aksincha, bu hissiy hayajonlanish bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha mustaqil ishlash uchun olingan ko‘nikmalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi.

Mashg‘ulotda ushbu talabalar yangi materialni takrorlashdan ko‘ra tushuntirishni afzal ko‘rishadi. Ular osonlikcha yangi ish turlariga ulanishadi, ammo agar ular qiyin bo‘lsa, ular qiziqishni ham osonlikcha yo‘qotishi mumkin. Ushbu o‘quvchilar bilan ta‘limning o‘zaro ta‘sir qilish taktikasi butun ish jarayonida ularning faollik holatini mustahkamlashdan iborat. Ushbu turdagi maktab o‘quvchilari xatti-harakatlarining shoshqaloqligi va to‘liqsizligiga xosdir, shuning uchun ular uchun javoblar rejasidan foydalanish, qo‘llab quvvatlash

signallariga tayanish, ma'lum bir ta'lim harakati algoritmlarini yaratish, rasmlar, jadvallarga ishora qilish muhimdir.


Shu bilan birga, ularni eslab qolish va o'zlari yaratgan sxemalarni (yoki o'qituvchi bilan birgalikda) ishlatish osonroq. Keyin o'quvchi quvonch va g'ayrat tuyg'usini nafaqat o'quv vazifasini idrok etishda, balki uni amalga oshirish jarayonida ham his qiladi. Muvaffaqiyat tuyg'usini bir marta boshdan kechirganidan so'ng, u buni takrorlashni xohlaydi va buning uchun u intellektual va irodali harakatlarni amalga oshiradi.

Talabalarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat ularning ta'lim berish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishga ham hissa qo'shadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalangan holda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish, pedagogik jarayonni yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi.

2.2. Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish texnologiyalari

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va


dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo‘ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o‘zida yangicha bilim berish, o‘zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana olish ko‘nikmalari tarkib topgan bo‘lishi lozim.



2.2.2 Rasm. Metodlarning tavsifiy turlari

Faol metodlar bilish, fikrlash, ish, faollashtirish kabi ahamiyatli xususiyatlarga ega. Interfaol metodlar - bu o‘zaro harakat qilish, hamkorlikdagi o‘zaro harakat qilmoq, shuningdek, hamkorlik muloqoti tartibida bo‘lishi lozimligini anglatadi. Passiv metodlar, bular - ma’ruza,

hikoya, tushuntirish, namoyish, kitob bilan ishlash, videousul, munozara, hamkorlikdagi an'anaviy o'qitish usullaridir.





Talabalarda zarur malakalarni shakllantirish, sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga

o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Barcha umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish lozim.

Monografiya jarayonida blum kubigi metodidan foydalanildi.

Chunki blumning har qanday axborotdan asosiy farqi ma'lumotlarning muayyan sohalar bo'yicha tizimli, izchil, uzluksiz hamda maqsadga muvofiqli o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Ta'lim tizimida tom ma'noda o'quvchilarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun pedagogi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o'quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqilmoqda. Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda tinglovchilarni pedagogik kompetentlik, pedagogik mahorat va kreativlik asoslari bilan tanishtirish ular tomonidan o'quv jarayonini ijodiy xarakterda, qiziqarli, o'quvchilarning faolliklari asosida tashkil etilishiga yordam beradi.

«Blum kubigi» metodi



- Sanab bering, ta'rif bering (oddiy savol)
- Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)
- Tushuntirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)
- Taklif bering (amaliyot bilan bog'liq savol)
- Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)
- Fikr bering (tahlil qilish va baholash savoli)
- O'qituvchi mavzuni belgilab beradi.
- O'qituvchi kubikni stolga tashlaydi.
- Qaysi so'z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

2.2.3 - rasm. Blum kubigi metodi

Mazkur omillar o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash yo'nalishida ham ko'nikmalar shakllantirish zaruriyatini belgilashi bilan bir qatorda, axborotlar to'plash, ularning yangiligi va ishonchliligini aniqlash, obektivligini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash o'quvchilar shaxsiy hayotida o'ziga xos ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. O'quvchilarda shakllantirish va takomillashtirish zarur bo'lgan refleksiv ko'nikmalarning asosiy komponentlaridan biri axborotlar bilan ishlash

ko'nikmasidir. Bizning fikrimizcha, talabalarda reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida axborotlar bilan ishlash o'quvchilar tomonidan turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, mazkur axborotlarning obektivligi o'quvchilar o'quv faoliyatini muvofiqlashtirishda ham o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Reflektiv ko'nikmaning komponenti sifatida o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish jarayonida o'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasidagi shaxsiy va texnologik axborotlar almashuvi vujudga keladi. Mazkur jarayonning o'ziga xosligi o'quvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni vujudga keltirish asosida ularning faolligini ta'minlash, o'quvchilarning o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilishi va axborotlarni tahlil qilish hamda obektiv baholash zaruriyatini tushunib yetishi bilan belgilanib, bu xususiyat bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi turish immunitetini hosil qilish bilan ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning yangi shakl va metodlarini ko'rib chiqish uchun keng imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rgatish, o'quvchilarni katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash muammosi yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslarning vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang - barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish

mushkul. Buning uchun o'qituvchi izlanishi, ijodkor bo'lmog'i darkor. Bunday holda, ayniqsa, darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi.

Mashg'ulotlarda ham yangi ma'lumotlarni yetkazishdan avval o'qituvchi ularning dastlab bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slaydlar, multimediya, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustahkamlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Darslarda foydalanadigan har qanday interfaol usullar ta'limiy xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengaytirish, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi. O'quvchilarda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi turish immunitetini hosil qilish jarayonlari samaradorligi ko'p jihatdan o'rganilayotgan va tahlil qilinayotgan axborot manbalariga, ya'ni axborotlar olinayotgan manbalarning xilma-xilligiga hamda ularning rasmiyligi va ishonchliligi bilan bir qatorda axborotlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligiga ham bog'liq bo'ladi. Axborotlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ularning tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligini ifodalaydi [50].

Talabalarda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish immunitetini hosil qilishda axborotlar tizimi keng bo'lishi va o'z xususiyatiga qarab yangilanuvchanligini, ya'ni o'zgarib borishi, yangiliklar bilan boyib borishini inobatga olish zarur. Ya'ni o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash bo'yicha zaruriy tushunchalarni hosil qilishda ularga axborotlar ularning hayotiy va kelajagiga ta'sir ko'rsatuvchi xabar va ma'lumotlar majmuidan iborat ekanligini tushuntirish zarur. Axborotlar o'quvchilarning faolligini ta'minlash

ularning faoliyatini obyektiv baholash va rag'batlantirish omillari sifatida xizmat qiladi.

O'quvchilarda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish immunitetini hosil qilish va rivojlanishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniq va ishonchli axborotlar to'plash va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- har bir talabaning yashash va mustaqil ta'lim olish sharoitlari;
- har bir talabaning individual psixologik xususiyati, fanga va kasbga bo'lgan qiziqishi hamda ma'lum bir davrdagi ehtiyojlari;
- talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, o'quvchilarning ma'lum bir o'quvchiga yoki ma'lum bir o'quvchining o'z sinfdoshlariga bo'lgan munosabatlari;
- talabaning boshlang'ich tushunchalari va uning faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;
- talabaning ta'lim olish yo'nalishdagi ehtiyojlari va ta'minoti;
- talabaga ota-ona, mahalla-ko'y munosabatlari va oiladagi mavjud munosabatlar;
- darsdan tashqari shig'ullanadigan mashg'ulotlari, sinf va maktabdan tashqaridagi o'rtoqlari;
- faolligini ta'minlash vositalari va uning faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;
- talabaning tabiatga, kitobga, texnikaga va san'atga bo'lgan munosabati, qiziqishi va h.k. hozirda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat

yo‘nalishida kadrlar tayyorlash borasida quyidagi jihatlarda alohida e‘tibor qaratish taklif etiladi:

- jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash;

- boshlang‘ich ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta‘lim xizmatlari samaradorligini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

- mazkur sohadagi pedagoglarning kasbiy darajasi va malakasini oshirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash shakl va usullarini takomillashtirish, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish;

- boshlang‘ich ta‘lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida o‘quv rejalari va dasturlari mazmunni qayta ko‘rib chiqish, ilg‘or xorijiy tajribadan foydalangan holda, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalar tuzish;

- oliy ta‘lim fan va ishlab chiqarish orasidagi innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion ishlanmalar yaratish va innovatsion yarmarkalarga taqdim etish, xo‘jalik shartnomalari tuzish .

Ta‘lim berishning asosiy maqsadi: bolaning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo‘lgan o‘qish savodxonligi, turli ma‘lumotlar bilan ishlashi, asosiy amallarni bilishi va ularni kundalik hayotda qo‘llay olishi, mantiqiy va ijodiy fikrlashi, o‘z-o‘zini boshqarishi, jamoada o‘zini tuta bilishi, yozma va og‘zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ko‘nikmalaridan iborat deb tariflash

mumkin. Bu jarayonda rolli o‘yin metodidan keng foydalanish tavsiya etiladi:

ROLLI O‘YIN

- **o‘quvchilar tomonidan mavzu yuzasidan uchraydigan hayotiy vaziyatlarning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.**



2.2.4. - rasm. Rolli o‘yin metodi.

Xulosa shuki, ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tizimli tashkil etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijtimoiy kompetentligini oshirishga, yuqori malakali, mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonining sifatli tashkil etilishini, malakali kadrlar tayyorlashda yuksak samaradorlikka erishishni kafolatlaydi.

Hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlodni jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom voyaga yetkazish, ularning ongi, dunyoqarashi va axloqni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida shakllantirish dolzarb vazifaga aylangan. Chunki egoizm, fanatizm, radikalizm kabi ijtimoiy illatlar voyaga yetib kelayotgan yoshlarni chalg'itayotgan tashvishidir. Bu masala yechimi ko'p jihatdan uzluksiz ta'lim tizimi zimmasiga tushadi va ulardan katta mas'uliyat talab etadi. Shu o'rinda o'quvchilarning ijtimoiy faolliklarini oshirish jarayonning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlariga e'tiborni qaratsak. Bular:

- talabalar ijtimoiy faolliklari ta'lim-tarbiya jarayonida tarkib topib, ularning ijtimoiy hayotga nisbatan yondashuvining mazmuni va darajasi sifatida namoyon bo'ladi;

- talabalar ijtimoiy faolliklari ijtimoiy-axloqiy talablar asosida tashkil etilayotgan faoliyat darajasi sifatida ularning kamol topishlarida muhim omil rolini bajaradi;

- talabalar ijtimoiy faolliklari ular mansub bo'lgan ijtimoiy jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar mazmuni hamda jamiyat mafkurasi mazmuni, g'oyasi, yo'nalishlari hamda qamroviga bog'liq;

- talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini oshirish obyektiv va subektiv shart-sharoitlar mavjudligi asosida o'quvchi-yoshlar o'rtasida tashkil etilayotgan ijtimoiy faollikni oshirishga asoslangan pedagogik jarayonda shakllanadi;

- talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini oshirish jamiyat taraqqiyotni aniq huquqiy me'yorlar asosida ta'minlashning muhim

sharti bo‘lib, mazkur jamiyat istiqbolini oldindan ko‘ra olish imkonini beradi [69-b].

O‘quvchilar ijtimoiy kompetensiyalarining bir qator o‘ziga xos omillari mavjud. Xususan, bu omillar:

- o‘quvchilar faollashuviga ta‘sir etuvchi subektlar; shaxs ijtimoiy faolligining individualligi;

- turli jins vakillari ijtimoiy faolligiga xos xususiylik;

- o‘quvchini qamrab olgan ijtimoiy muhit;

- o‘quvchi-yoshlar faolligini oshirishga rag‘bat uyg‘otuvchi o‘quv muassasalari va boshqalardan iboratdir. Shu sababli bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlash muhim masalalardan biri sanaladi. Bu bilan:

- birinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik ko‘lami kengayadi;

- ikkinchi, bu masala pedagogik innovatsiya masalasiga daxldor hisoblanadi;

- uchinchidan, kelajakda o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

O‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar va ilg‘or ta‘lim metodlarini joriy etish, tashabbus va xatti-harakatlarni rag‘batlantirish, turli pedagogik loyihalarni ishlab chiqish va tahlil qilish, pedagogik imkoniyat va zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy amaliyot va ta‘lim

ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda natijalarning samaradorligini ta'minlashni ilmiy asoslarda tashkil etish lozim.

Shu jarayonda modellashtirish uchun talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirishni ilmiy asosda tashkil etish o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda oldindan rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun eng qulay bo'lgan samarali metodlar va ilg'or usullarni amaliyotga tatbiq etish nazarda tutiladi va o'z navbatida ulardan ijtimoiy faollik yo'nalishida o'ziga xos bilim, ko'nikma va malakalar, o'quvchi va o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish uchun ma'lum tajriba talab etiladi.

Ma'lumki, o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish ijtimoiy va pedagogik ahamiyatga ega masala sifatida qaralib kelinmoqda. Birinchidan, bugungi talabalar kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi texnik imkoniyatlardan faol foydalanayotgani ma'lum; ikkinchidan, bu texnik vositalardan 6-11 yoshli o'quvchilarning shakllanish bosqichida bo'lgan ongini chalg'ituvchi, hatto mayib qiluvchi axborotlarning ko'pligi sir emas; uchinchidan, jamiyat yosh avlodning bilimli, dono, aqlli va maqsad-muddaoli bo'lib voyaga yetishi ehtiyojini qo'yimoqda .

Bu omillar talabalarda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi orqali ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu jihatdan ijtimoiy faollik ijtimoiylashtirishdan keyingi bosqich bo'lib, u muayyan bilim va ko'nikma hosilasidir. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga ko'ra, shaxsning ijtimoiy kompetensiyasini poydevorini boshlang'ich ta'limda qo'yish va keyingi ta'lim bosqichlarida uni rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ijtimoiy kompetensiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning negizini hayotiy bilim, dunyoqarash va axloqqa ega bo'lish hamda faoliyat va hayotga tayyorlanish tashkil qiladi. Bunda hayotiy bilim- dunyoqarash va mustaqil fikrning shakllanishiga asos bo'luvchi bilimlar majmuini, dunyoqarash - olam, borliq va odam haqida ilmiy tushunchaga ega bo'lishni, axloq - fazilatlar va sifatlarni, faoliyat - jamiyat madaniy darajasiga mos harakatni va hayotga tayyorlik esa mazmunli baxtli yashash asoslaridan xabardorlikni ifodalaydi. Har bir jamiyat shaxsning ijtimoiy faolligi asosida rivojlanadi.

Bizning xulosamizga ko'ra, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jamiyatimiz talablari va ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda bayon qilingan nazariy fikr-mulohazalardan kelib chiqib, talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish mohiyatini shunday belgilash mumkin: 6-11 yoshli o'quvchilarning ijtimoiy tushunchasi, ongi, fikri va axloqni shakllantirish ijtimoiy faollik asosidir. Unga ko'ra, talabalar Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ijtimoiy hayot to'g'risida talab darajasida tushunishga ega bo'lishi, ongi ijtimoiylashishi, mustaqil fikrlay olishi va jamiyat talablariga mos axloq egasi bo'lishi kerak. Bunday yondashuv milliy va jahon pedagogikasi talablariga mos keladi. Albatta, bu ish bugungi boshlang'ich ta'lim jarayonida muayyan darajada amalga oshirilmoqda [98-b].

Ammo bizning maqsadimiz bu ishni ilmiy va pedagogik asoslangan tarzda amalga oshirishdir. Buning uchun quyidagi tashkiliy-pedagogik ishlar amalga oshirilishi lozim:

- o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik va metodologik asoslarini ishlab chiqish;
- ushbu tizimni takomillashtirishning mezonlari, metodlari, vositalari va texnologiyalarini belgilab olish;
- mazkur tizimni takomillashtirishning shakllari va mexanizmlarini aniqlab olish va h.k.

Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlash tizimining modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki muammoni o'rganishda jahon pedagogikasi tajribasini kuzatish shunday xulosaga olib keladiki, har bir mamlakat real imkoniyatlardan kelib chiqib model tanlagan. Jamiyatimizda birday amaliyot sinovidan o'tgan pedagogik tajribalarni hisobga olish imkoniyati bor. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonid talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishning milliy modelini asoslash mumkin.

Bizningcha, bunda talabalarni quyidagilar bo'yicha kasbiy malakasini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- o'quvchilarda individual layoqati, xohish-istagi va qiziqishlarini aniqlab olish;
- ta'lim va tarbiya jarayonini hayot va ijtimoiy faoliyat bilan uyg'unlikda tashkil etish;
- o'quvchilar bilan mutazam individual va umumiy tarzda ish olib borish;
- amaliy mashg'ulotlardagi tayyorgarlikni va faolligini kuchaytirish;

- ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (ota-onalar, jamoatchilik va mutaxassislar) ko‘pligidan unumli foydalanish;
- o‘quvchilar ijtimoiy kompetensiyasining shakllanish jarayonini nazorat qilish va monitoringini qilib borish va h.k.

Bu borada tizimni takomillashtirish jarayonlarni modellashtirish asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etib, unda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarini, o‘quvchilarning qiziqishlari, mustaqil fikrlashlari, ularning dunyoqarashi, o‘ziga xos xususiyatlari va mavzuga oid boshlang‘ich tushunchalari va qarashlari, imkoniyatlari, o‘rganiladigan mavzularning maqsadi, predmeti va ahamiyatini inobatga olish hamda ularga mos keluvchi ta’lim metodlarini tanlash, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarni va ularni amalga oshirish bosqichlarini hal etish kerak.

Jarayonni modellashtirishda davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarini hamda zamonaviy talablarni inobatga olish zarur. Olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonlarining barcha shakllarini o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini hamda mazmunan uzviyligini ta’minlovchi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ijtimoiy faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan talab darajasidagi mukammal modellarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim.

Shunday ekan, talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonlarini

modellashtirish - bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini, ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan talabalar asosida ishlab chiqilgan, ilg'or metodlardan foydalanishni ifodalovchi, mazkur jarayonni tashkil etish bosqichlari va funksiyalari hamda qayta aloqani ta'minlanishi aks ettirgan andoza deb tavsiflash mumkin

Ya'ni:

- bo'lajak ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish yo'nalishidagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish yo'nalishida bajariladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar va yondashuvlar o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash;

- talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini oshirish uchun ulardagi ehtiyoj va qiziqishlarni va o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish vositalaridan maqsadli foydalanish;

- talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimi;

- talabalarning malaka oshirish va innovatsion faoliyatga moyillik va qiziqishlarni shakllantiruvchi motivlarni aniqlash;

- talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish omillarini yoritish va asoslash;

- o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonlarining istiqbolini va samaradorligini rivojlantirish yo'nalishidagi vazifalarni oldindan belgilash;

- o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish asoslarini amalga oshirishda zarur bo'lgan vazifalarni belgilash;

- o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonlari uzviylikini ta'minlovchi vositalarni aniqlash kabilar.

Model talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarining barcha shakllarining o'zaro hamkorligi, aloqadorligi va uzviylikini ta'minlovchi hamda talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga oid bilim, ko'nikma va malakalar hamda kasbiy tayyorgarlikga bog'liq jarayonlar bilan bir qatorda, bo'lg'usi o'qituvchilarning shaxsiy xislatlari, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlari, qobiliyati va kompetentligiga bog'liq bo'ladi.

N.A.Muslimov "individuallashtirish va tabaqalashtirish asosida har bir o'quvchi bilan alohida ishlab, iqtidorli talaba-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini to'laqonli ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratish" to'g'risida to'xtalar ekan:

- ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borish, talaba-yoshlarni nafaqat bilimli, balki, ma'naviy, axloqiy hamda kasbiy tayyorlangan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo'yicha ta'sirchan pedagogik choralarni belgilash, buning uchun talaba-yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqib, joriy etish

- ta'lim muassasalarida sog'lom kreativlik muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot

texnologiyalarini joriy etish bilan o'qitish yangi bosqichga ko'tarish, talabalarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini takomillashtirish;

– iqtidorli talaba-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini aniqlash, tarbiyalash, ular iste'dodini to'laqonli ro'yobga chiqarishning yagona umummilliy tizimini shakllantirish, o'quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish ilmiy asoslarini yaratish to'g'risida keltirib o'tilgan bo'lib, shuning uchun ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda individual ta'limning o'rni beqiyosdir

– Fuqarolik jamiyati qurish to'g'risidagi nazariyalarda Amerikalik siyosatshunos O. Enkarnasonning fuqarolik jamiyati xususiy individlar tomonidan o'z manfaatlari va qadriyatlarini himoyalash uchun tuzilgan keng va turli-tuman tashkilotlar olamini qamrab oladi deb hisoblaydi. Bunday tashkilotlarga misol qilib, qo'shni bo'lib yashaydigan insonlar assotsiatsiyalari, shuningdek umummilliy uyushmalar va etnik assotsiatsiyalar kabi erkin tashkil etilgan fuqarolar quyi tashkilotlarga xizmat qilishi mumkin deb ta'kidlagan .

T.Moshkinning fikriga ko'ra fuqarolik jamiyatning-asosiy vazifasi davlatga tinchlikni saqlash va manfaatlarining asosiy guruhlarini o'rtasidagi rolga xalaqit qilmay, uning hukmronlik qilish istagiga qarshilik ko'rsatish hisoblanadigan turli nohukumat institutlarning majmui deb ta'kidlaydi.

E.Petrenko va G. Gradoselskaya , Xelmut, K. Axier va Liza Karlsonlarning 2002 yildagi Civil Society: What it Is, and How to Measure ichida berilgan ta'riflar shunday keltiradi: "Fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlar, individual sifatlarining birligi hisoblanadi

va oila, davlat hamda bozor o'rtasida mavjud bo'ladi, fuqarolik jamiyati a'zolari umumiy manfaatlar asosida erkin birlashadilar”.

Bunga siyosiy faollik orqali partiyalar, nodavlat tashkilotlarida, fuqarolik tashabbuslari yoki ijtimoiy harakatlarda, shuningdek jamiyat uchun foydali boshqa tashkilotlarda ishtirok etishi kabilar. Shuningdek, fuqaro o'zining shaxsiy huquq va manfaatlarini himoyalash bo'yicha faol pozitsiyaga ega bo'lishi ham faol fuqarolik tushunchasiga kiradi, chunki huquqlarda tenglik ham ko'pgina insonlarning manfaatlariga mos tushishi bunday faoliyatni ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanligida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayoni bir qator qo'llanilgan pinbord metodi, talabalarning qiziqishlarini va o'zlashtirishlarni ta'minlashda juda yaxshi natija berdi.

Inson fuqarolik sohasida o'ynashi kerak bo'lgan ijtimoiy rollar, samarali faoliyat shart-sharoitlari va ijtimoiy kapitalni to'plashning miqdori shunchalik ulkanki, shaxsning fuqarolik jamiyati hayotida ishtirok etish muammosiga kompleks nuqtai nazar sifatidagi kompetensiyaviy yondashuv vaziyatidan fikr bildirish zarurdir.

Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat sohadagi muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga, qadriyatli uynalganlik, ijtimoiy o'quvchi o'z-o'zini anglashga ega bo'lgan, balki bularning barchasini amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati va insonlarni tayyorlash zaruratini ifodalaydi.

Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili “ijtimoiy kompetensiyasi - bu inson o'z hayot faoliyatida, fuqarolik jamiyatining a'zosi bo'lishi, uning shakllanishi va rivojlanishida ishtirok etish, fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan qobiliyati va tayyorgarligi” deb ta'kidlab o'tadi.

Kompetensiya tushunchasining mezonlari sifatida inson, ma'lum sohada hayotiy muvaffaqiyatga erishishga ko'maklashuvchi, unga muvaffaqiyatga erishish yo'lida samarali harakat qilishga imkon beruvchi, ma'lum obyektiv talablariga moslik asosida rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi. E.V. Varishnikov , B.A. Ozerova, A.M.Knyazev, V.P.Gurova va boshqalarning kompetensiyaviy yondashuvga oid tadqiqotlari tajribasiga tayanib, biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish komponentlarini quyidagi uch guruhga ajratib ko'rsatish orqali ifodalash mumkin deb hisoblaymiz.

2.3. Talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli

Kompetensiya insonning pedagogik-psixologik xususiyatlari takomillashiga bog‘liq bo‘lgan, nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llashning turli sohalaridagi murakkab vazifalarni yechishga tayyorlikni, balki mazkur masalalarni yechish qobiliyatlari rivojlanishning ma‘lum darajasiga ham ifodalovchi subektiv toifa sifatida talabaning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ijtimoiy sifatlarini yuksaltirishda namoyon bo‘ladi.

Talabalarda ijtimoiy kompetensiyaga ta’sir etishda ahloqiy tarbiyalanishi ham muhim o‘rin tutadi. Chunki, “jamiyatning ma’naviy kamoloti o‘z-o‘zicha, amalga oshmaydi. Har bir tuzum, davr muayyan maqsadlar, talab va ehtiyojlar asosida kishilarning ma’naviy kamolotiga ta’sir ko‘rsatadi, unga mazmun va muayyan yo‘nalish beradi. Shunga asosan inson tarbiyasining biror tizimi, usullari va shakli kelib chiqishi” bilan ifodalanadi

Akramov o‘quvchilar fuqarolik pozitsiyasi tarkibiy qismlarga to‘xtalar ekan: ularni, hissiy-ahloqiy, intellektual, faoliyatli komponentlarga ajratadi va talabalarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni, tarkibi, mazmunining ilmiy-pedagogik asoslarini ochib bergan

Erkaev o‘z ilmiy izlanishlarida “e’tiqod dunyoqarashning, u orqali ma’naviyatning o‘zagi sifatida voqelikka inson munosabatini, xulq atvorini, faolligini belgilaydi. Faollik uchun, ayniqsa ijodlorlik uchun oddiy ishonchga asoslangan ilm ko‘p hollarda kamlik qiladi. Ijodkorlik va faollik ishonchining ixlos va ishq bilan boyitilishini taqozo etadi” deb ifodalagan [62,52 b].

AQShning Yelsk universiteti professori, zamonaviy dunyoning eng taniqli olimlaridan Robert Dal “demokratiyadagi xavfni ko‘pgina fuqarolar amaliyotda ijtimoiy kompetensiyasining eng sodda standartlariga javob bermasliklarida” deb qaraydi. Chunki fuqarolar fuqarolik jamiyati barpo etishda eng muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [99].

J. Rumiy o‘z asarida “jismoniy mansublik bilan birga ruhoniyl, ma’naviy yaqinlikka ham ishonadi va u ma’no ahlini avliyo farzandi” deb e’tirof etadi. [198]. Chunki, yoshlar ma’naviy - ruhiy yetukligi o‘z davrida mutaffakir asarlarida o‘z aksini topgan [213].

Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish avvalo, uning individual sifatlariga etibor qaratishni nazarda tutadi. Shuning uchun olimlar tomonidan pedagogik amaliyotda individuallik pedagogikasiga oid qarashlarni ko‘rib chiqish zarur.

N. S. Grebenuuk pedagogika individual yondashuv ostida insonni hayvonot va ijtimoiy olamdan ajratuvchi hamda uning intellektual, motivatsion, emotsional, irodaviy, predmetli-amaliy, o‘z-o‘zini nazorat qilish va ekzistentsial sifatlarining asosiy sohalari bilan belgilanuvchi pedagogik-psixologik betakror xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan [27,572 b].

Pedagogikada individual yondashuvning predmeti, maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida inson individual sifatlarining shakllanishi va rivojlanish mohiyatini tadqiq etish va shu asosda uning ijtimoiylashuv jarayonini belgilash orqali tushuntiriladi. Ma’lumki, ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish o‘quvchi ijtimoiylashuvi

jarayonining zarur qismi sifatida, tarbiya, rivojlanish, ta'lim, shaxs shakllanishi, uning muammolarga taalluqli psixologik-pedagogik xizmati sifatida qaraymiz, shuning uchun ham pedagogikada individual yondashuv konsepsiyasini o'rganish va tahdid etish muhim o'rin egallaydi.

Metodologik darajada individual sifatlarni shakllantirish kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatli va kreativ yondashuvlar nuqtai nazaridan o'rganiladi va mazkur jarayonni pedagog, talabalar individual xususiyatlari o'zini-o'zi rivojlantirishni tashkil etish bo'yicha yaxlit faoliyat sifatida ifodalash imkonini beradi.

Tuzilmaviy daraja orqali individual sifatlarni rivojlantirish pedagog va talabalarning ta'limni individuallashtirish jarayonidagi faoliyatlari tizimi sifatida ifodalanadi. Funktsional darajada o'quvchining individual sifatlarini rivojlantirish talaba-yoshlar psixikasi sohasidagi yangi hosilalarni ta'minlovchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlarning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi sifatida qaralmoqda.


O. X.Djurayev talaba yoshlarda ta'lim-tarbiya jarayonida individual xususiyatlarini takomillashtirish masalalari to'g'risida shunday ta'kidlaydi, "dars jarayonini tashkil etishda, o'quvchilarni majburlash tarzida emas, balki har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy yondashish, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, talaba har bir ishda namuna bo'lish, talab va ehtiyojlarni tushunish, qat'iy - intizomga rioya etish, ilmiy-nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash" kabi eng muhim omildir deb ifodalagan [105].

Olimlar tomonidan talaba ijtimoiylashuvi va shaxsiga ta'sir etuvchi omillar (O. Grebenyuk [26.- B.160), N.Qosimova [121.-B.46] va individuallik pedagogikasi (O.Grebenyuk [27-B.572], T.Grebenyuk [26. - B.572], M.Rojkov [161.-B.134], G. Andreeva [75.-B.373], A.Maslou [53.-B.84], V.Merlin[55.-B.448], D.Ro'ziyeva [164. - B.255] va b.q) nuqtai nazaridan o'quvchining individual xususiyatlarini takomillashtirish, ta'limga individual yondashish jarayoni orqali o'rganish, pedagogik-psixologik, xususiyat va sifatlari u yoki bu sohalarning rivojlanishi, ketma-ketligi tartibida ham bir-biridan ajralgan holda sodir bo'lmashligini, balki o'zaro aloqadorlikda, talaba sifatlarining umumiyligida sodir bo'lishini hisobga olishi kerak. Agar pedagog talabaning ichki kuchlarini o'z-o'zidan aktuallashtirish, uning ekzistensial sohasini rag'batlantirish, o'zini-o'zi nazorat qilish mexanizmlarini kiritishga asoslanganida mazkur jarayon samarali va uyg'un kechadi.

E. Andreyeva ijtimoiylashuv jarayoni yoshlarda ularning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanishi to'g'risida to'xtalib o'tgan. Chunki, talaba shaxsi ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda uning jamiyat hayotida ijtimoiylashuvi ham muhim o'rin egallaydi [76.-B.373].

N.Qosimova o'z tadqiqotida shaxs ijtimoiylashuvida ibrat va ta'lim-tarbiya masalalariga to'xtalganda ma'rifatparvar bobomiz Maxmudxo'ja Behbudiyning ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro hurmati, oilada bola tarbiyasi, ta'lim-tarbiyada ota-ona ibrati rolini alohida keltirib o'tganligi ham talaba ijtimoiy faollik ko'rsatishda oila tarbiyasining o'rnini yuqori ekanligi muhim o'rin tutadi

O'quvchilarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan kamol topishi, o'z davrining sharqona odob, umuinsoniy qadriyatlar, demokratik tamoyillar asosida voyaga yetgan yetuk farzandlari, istiqlol ishining davomchilari bo'lib voyaga yetkazish har bir mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatning asosiy ustuvor vazifasidir



2.1- rasm. Talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilarkanmiz, ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish insonni jamiyatda pozitsiyasiga ega bo'lishga, demokratik davlat qurish yo'lida o'zining faol ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy sherikchilik, jamoatchilik nazorati, shuningdek o'zini-o'zi nazorat qilish, jamiyat hayotida yuz berayotgan hodisa va

jarayonlarga befarq bo'lmalik, talaba ijtimoiy omillarining barcha asosiy sohalarini takomillashtirishda namoyon bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida yoshlarning faolligini oshirishda demokratik davlat qurish g'oyasi, jamoat tashkilotlari faoliyatida o'z fikr va qarashlari bilan faol ishtirokida namoyon bo'ladi

- davlat hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga faoliyatida petitsiyalar bilan murojaat qilish (fuqarolarning individual va jamoa tartibida murojaatlari).

- hokimiyat faoliyati to'g'risida axborotning fuqarolar uchun ochiq-oydinligi (fuqarolar uchun davlat organlarining axborot jihatdan ochiq-oydinligi).

- mahalliy o'z-o'zini boshqarish, fuqarolar birlashmalari orqali jamiyat ishlarini boshqarishda ishtiroki;

- oshkoralik tarzida eshituvlar;


- qonun loyihalari va davlat hayotining boshqa muhim masalalarining jamoat muhokamalari;

- qonunchilik hujjatlari loyihalarining jamoat ekspertizasi;

- jurnalistik tekshiruvlar va boshqa nazorat turlari orqali amalga oshirishda, yoshlar tashabbuslari fuqarolik jamiyati shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Mamlakatda "inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish" yo'lidan bormoqda [2 b]. Har qanday jamiyatda ta'lim oluvchi, ya'ni talaba shaxsiga ta'lim berishda unga ta'sir etuvchi omil va

ishtiyoqni kuchaytirish, mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish, ijtimoiy tashabbuskorligini takomillashtirish muhim omil hisoblanadi.



2.2.-rasm. Talabalarning ijtimoiy bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kompetentsiyasiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik jarayon faoliyat funksiyalari

Jamiyatda o'quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy adolat muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy adolat - bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati,

tili, va dini e'tiqodidan qat'iy nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini yaratish darkordir.

Shaxs faolligi, avvalo o'z-o'zini rivojlantirish, o'z imkoniyatlari ko'lamidan unumli foydalana olishga intilish jarayoni ekanki, bu jarayonni muntazam ravishda o'rganish va rivojlantira borish shaxs taraqqiyotini ta'minlovchi jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanmog'I muqarrar hisoblanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarda individual sifatlarga ta'sir etuvchi omillar shaxsning ijtimoiy kompetensiyasida qanday ifodalanishini e'tibor qaratamiz. Intellektual sohada, tafakkur turlari va uslubi, aql sifati, bilish jarayonlari va ko'nikmalar, fikrlash operatsiyalari, shu bilan birga fan va fan oldi bilim, ko'nikma va malakalar tizimini tashkil etadi. Kompetensiya shaxs fikrlashining mahsuldor turi sifatida alohida rol o'ynaydi, chunki kompetensiya birinchi navbatda turli sohalarda bilimlarni qo'llashni, turli nostandart vaziyatlardan chiqish usullarini topish ko'nikmasini, odatiy, stereotip yechimlarga qarshi chiqish, turli algoritmlashtirilgan murakkab vazifalarni yechish qobiliyatini nazarda tutadi.


Ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish uchun tanqidiy fikrlash, fuqarolik jamiyati hayotiga taalluqli bo'lgan axborotni olish, tahlil qilish va foydalanish ko'nikmasi, ijtimoiy-fuqarolik bilim, fuqarolik pozitsiyasi, ko'nikma va malakalarining keng doirasi zarur hisoblanadi.

Motivatsion soha, insonning butun hayoti davomida shakllangan va rivojlanadigan ehtiyojlar, motivlar va maqsadlar majmuini qamrab oladi. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan

“O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi: Fuqarolik jamiyati” (ijtimoiy fan) fani misolida ko‘rib chiqar ekanmiz: fanning eng asosiy maqsadlaridan biri talabalarda ijtimoiy motivatsiyasini shakllantirish orqali, fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish hisoblanadi. Inson o‘zining fuqarolik nuqtai nazarini aniqlash zaruratini anglashi muhim rol o‘ynaydi, unda fuqarolik faoliyati motivlari shakllangan bo‘lishi, maqsad qo‘yish va ularga erishish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan erishiladi.

Emotsional soha tarkibiga emotsiyalar, his-tuyg‘ular, o‘zini-o‘zi baholash, xavotirlanuvchanlik kiradi. Emotsiyalar ehtiyojlarni qondirish yoki qondirmaslik bilan bog‘liq va bevosita kechinmalar shaklida ko‘rsatadi. Ijobiy emotsiyalar ehtiyojlarni qondirishda, faoliyat maqsadiga muvaffaqiyatli erishishda yuzaga keladi va ularni yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Insonning ehtiyojlari va motivlariga aloqador borliq hodisalari ahamiyatini aks ²

² Hakimova I. X. Bo‘lajak maktab menejerlarida ijtimoiy kompetentliklarini shakllantirish shart-sharoitlari. 598-602.b Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendiriu. Ilmiy-metodikaliq jurnal. 2024 5/2-san.



2.3. - rasm Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

ettiruvchi uning barqaror emotsional munosabatlari his-tuyg'ular deb ataladi. Shu bilan birga, ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan fuqarolik hissi, vatanparvarlik, fuqarolik ma'suliyat hissi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zining jamiyat, xalq, davlat taqdiri uchun, fuqarolik burchi va majburiyatini bajarishga mas'uliyatni his etish lozimdir. Aksincha, huquqiy yoki siyosiy, mavjud fuqarolik yoki siyosiy institutlarga ishonmaslik kabi emotsional ifodalanishlar faoliyatini buzishi mumkindir.

Salbiy emotsional reaksiyalarini yuzaga keltiruvchi sabablar orasida fuqarolik munosabatlari sohasidagi muvaffaqiyatsizliklar, qo'yilgan maqsadlarga erisha olmaslik, bu emotsional zo'riqishni va bu zo'riqishni yuzaga keltirgan vaziyatdan qochish orqali zararli ta'sirni bartaraf etish yoki kamaytirishga intilishni yuzaga keltiradi. Emotsional sohaning o'ziga xos xususiyati xavotirchanlik hisoblanib, u fuqarolik faoliyatida muhim rol o'ynaydi, chunki mazkur faoliyat muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan va noaniqlik yoki yaqinlashayotgan xavf vaziyatiga emotsional reaksiya berishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Bunaqa vaziyatlar fuqarolik faoliyatiga to'g'ri emas, chunki insonni o'z huquqlari, manfaatlari yoki nuqtai nazarini himoyalash zarurati nizoli vaziyatga olib keladi. Bezovtalik, o'z xulqining to'g'riligiga ishonchsizlik, tajovuzkorlik, umidsizlik va hokazolarda ifodalanishi mumkin bo'lgan yuqori xavotirlanuvchanlik darajasi, zo'riqish vaziyatlaridan qochish istagiga olib kelish, fuqarolik motivatsiyasini keskin pasaytiradi .

O'quvchilar individual sifatleri motivatsion va emotsional sohalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning rivojlanishi insonning ijtimoiy

kompetensiyasi uchun muhim o‘rin tutadi. Tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, o‘ziga ishonch, qat’iyatlik kabi irodaviy holatlar insonga bosim o‘tkazish, iqtisodiy va siyosiy mansabdor shaxslar, korporatsiyalar, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning ta’siri sharoitlarida kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini amalga oshirish juda muhim hisoblanadi .

Shuning uchun, inson o‘z faoliyatida instinktiv-ehtiyojli sohasini ijtimoiy-ahamiyatligiga bo‘ysundira olish, jamiyat manfaatlari asosida bo‘lajak hatti-harakatlarga o‘zini-o‘zi mobillashtirilishni o‘rganish lozim. O‘z fuqarolik huquqlarini himoyalash irodaviy o‘z-o‘zini hazorat qilishni, ijtimoiy-ahamiyatli vaziyatni egallash va himoyalash, fuqarolik jamiyati va demokratik davlatni barpo etish va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Chunki, inson o‘zida mas’uliyatni his qilish, zarurat bo‘lganida nafaqat o‘zining, balki boshqa fuqarolarning fuqarolik huquq va manfaatlarini himoyalash qobiliyatini takomillashtirishni talab etadi. Ijtimoiy fuqarolik jihatdan kompetent inson davlat va jamiyat mafkurasi uchun qarshi ta’sirlar, yani jamiyat rivojiga qarshi qaratilgan har qanday hatti-harakatlarga qarshi kurasha oladigan talaba-yoshlarni tarbiyalash maqsadga muvofiq. Shu bilan birga u o‘zini davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati nazoratini amalga oshiruvchi fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda bo‘lishi kerak.

Fuqarolik jamiyati hayot maqsadini va ularga erishish vositalarini tanlash erkinligini ko‘zda tutadi. Aynan shu o‘zini-o‘zi boshqarish sohasini tavsiflaydi. O‘quvchilar, halollik, poklik, vijdonlilik tushunchalariga asoslanib, o‘z maqsad va intilishlarini tanlashga ongli

yondashishi, tanqidiy va har tomonlama fikrlashni bilish, o'z xulqini boshqa insonlarning hatti-harakatlari bilan bog'lash, o'z mustaqil fikr va hatti-harakatlarini tog'ri baholashni o'rganishi kerak. Bu ko'p jihatdan reflektiv ko'nikmalarga, o'zini-o'zi nazorat qilishga kiradi, chunki muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini tashqi sharoitlardan emas, balki avvalo o'z xulqlarida yoki sifatlarida izlaydigan insonlar muvaffaqiyatga erishadilar. Yuqoridagi tahlillar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.

Shundan keyin, kompetensiyaviy yondashuv orqali ijtimoiy fuqaro quyidagilarni bajara olishi kerak:

- O'quvchi vaziyatni aniq anglash va baholash;
- ijtimoiy - siyosiy hayotda ishtirok etish, fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida jamiyat manfaatlariga asosan bunday ishtirokning samaradorligini tahlil qilish;
- o'quvchilarning jamiyat ta'lim berish samaradorligi va shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga yo'nalganligiga ko'ra aniqlash;
- ta'lim metodlarida o'quvchilarining tabiat hodisalari bilan bog'liq ravishda tahlil qilish va aniqlash qobiliyatlarini o'stirishda foydalanish;
- jamiyat va mamlakatda sodir bo'layotgan hodisalar tahlili asosida jamiyat va davlat manfaatlariga muvofiq ravishda jamiyat manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy kompetensiyasini takomillashtirish;
- didaktik me'yorlarga asoslangan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy sifatlarini takomillashtirish;

– axloqiy, shaxsiy, fuqarolik, madaniy qadriyatlarni takomillashtirish metodlarini aniqlash.

Predmetli - amaliy soha o‘z ichiga inson faoliyati va muloqotning turli ko‘rinishlaridagi qobiliyatlar, hatti-harakatlar, ko‘nikmalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ijtimoiy kompetensiyasi, fuqaroni ommaviy faoliyatda ifodalanuvchi istedodlarini tavsiflaydi: insonlarga ta’sir etish, o‘z maqsadlariga erishish uchun jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlarga daxldorlik, o‘z maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan axborotni olish, o‘zlashtirish va foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtiradi. Ijtimoiy rivojlangan predmetli-amaliy sohada, talabalar axloqiy, ma’naviy, fuqarolik hatti-harakatlarini amalga oshirish, jamiyatda o‘z namunali xulqi orqali mas’uliyatli munosabatni ifodalash, o‘zining yoki boshqa insonlarning xulqi, axloqiy, vatanparvarlik, fuqarolik jihatidan baholashga imkon beradi, shuningdek:

– tashkilot jamoatlari, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolik vaziyatining turli ifodalanish shakllari orqali ishtirok etish;

– yosh-o‘quvchilar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faollikni namoyon etish, fuqarolik jamiyati va demokratik davlat qurish me’yorlarini muhokama qilish;

– jamoat va davlat tashkilot jamoatlari hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlariga saylovlarda ishtirok etishga mas’uliyatli va ongli yondashish;

– fuqarolik ta’sir, zo‘ravonlik, shakllariga hatti-harakatlari orqali qarshi kurashish;

– o‘z fuqarolik huquqlari va huquqiy majburiyatlarini bajara olishi. Ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishda pedagogik tarbiya,

insonparvarlik tamoyillari asosida quriladi - jamiyat a'zolarini ijtimoiy munosabatlarga kirishish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, vijdon erkinligi, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikni ta'minlashda inson tanlovi erkinligini tan olish. Aynan mazkur yo'nalganliklar talabalar individual sifatlarining mohiyatini belgilab beradi

Ijtimoiy kompetensiyasi o'z taqdirini vatan jamiyat, o'z xalqi taqdirdan ajralmasligini tan olishdan kelinadi. Inson o'zining shaxsiy muvaffaqiyatga, u faqatgina jamiyatda o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana olganidagina erishishi mumkinligini, ya'ni shaxsiy muvaffaqiyat jamiyat, davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishidan ajralmasligini tushunish kerak. O'zining hayotiy yoki kasbiy rivojlanishini amalga oshirib, inson jamiyat taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tishiga yordam beradi hamda jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Tadqiqotda olimlar tomonidan ta'kidlangan fikr-mulohazalarni umumlashtirish orqali, ijtimoiy hamkorlikda ta'lim-tarbiya, faoliyat usuli professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi hatti-harakatlari tizimiga aytiladi.

Psixologiya fanida talabalar shaxs sifatleri takomillashtirishida ijtimoiy-hamkorlikning quyidagi sifatlarini ochib berilgan:

- pedagogik-psixologik hamkorlik faoliyatiga kirishish;

talabaning o'qituvchi bilan o'zaro hamkorlikda bajaradigan individual sifatleri orqali amalga oshirish;

1.2-jadval

Ijtimoiy kompetensiyasiga ta'sir etuvchi omillar va shaxs tavsifi sifatida

№	Ijtimoiy sifatlar	komponentlar	Ijtimoiy faol fuqaro
1	Ijtimoiy fuqarolik vaziyatning barqarorligini ta'minlovchi mahsuldor, divergent fikrlash (ma'lum bir muammoning bir necha yechimi), ijtimoiy tanlovi vaziyatlarida qaror qabul qilish ko'nikmasi, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy-fuqarolik bilimlarining mahsuli. Faol fuqarolik ko'rinishda, o'quvchilarda ijtimoiy faollikka, fuqarolik holatida, talabalarda ijtimoiy faollikka, fuqarolik faoliyati maqsadlari va motivlari, fuqarolik holatini ifodalashda mustaqil, nizoli vaziyatlarni to'g'ri hal	Motivatsion - qadriyatli	Axloqiy va fuqarolik qadriyatlari, siyosiy va ijtimoiy tanlov vaziyatlarida fuqarolik xulqi xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarning samaradorligi, inson tavsifi sifatida ijtimoiy pozitsiyasi, inson rivoji uchun ma'suliyatlilik. Ijtimoiy vaziyatlarda (fuqarolik va ijtimoiy tanlovda) asosli, ma'suliyatli

	qilishga intilish.		xulq-atvor, davlat va jamiyat tarixiga qiziqish, fuqarolik pozitsiyasi va majburiyatlariga oid bilimlarni egallash hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga katta e'tibor berish.
2	Talaba-yoshlarda ijtimoiy kompetensiyasini takomillashtirish orqali xalq, jamiyat, davlat manfaatlari yo'lida, o'z fuqarolik burchini bajarish uchun qayg'urish. O'z qobiliyatlari, fuqarolik sifatlarini baholashni bilish; Fuqarolik sohasidagi faoliyatga nisbatan xavotirlanuvchanlikning past darajasi	Kognitiv - intellektual	Ijtimoiy fuqaroning ijtimoiy siyosiy munosabatlarda emotsional ijobiy ifodalangan tizimning mavjudligi, jamiyat va davlat manfaatlari uchun ma'suliyatlilikning yaqqol ifodalanganligi; jamiyatga qarshi har qanday hatti-harakatlarga

			emotsional munosabatda bo'lish.
3	Tashabbuskorlik, maqsadga intiluvchanlik, o'ziga ishonch, qatiyatlilik, tirishqoqlik, instiktiv-ehtiyojlarini ijtimoiy - ahamiyatligiga bo'ysundirish qobiliyati, ijtimoiy yo'naltirilgan yo'nalishlar orqali namoyon etish. Faol fuqarolik faoliyati sohasida o'zini va o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash ko'nikmasining namoyon bo'lishi;	Amaliy-faoliyatli	Guruh, fakultet, ta'lim muassasasi manfaatlarini yo'lida o'z irodasi hamda mustaqil fikr va mulohazalar borligi; fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ishtirok etishga, jamiyatga qaratilgan salbiy illatlarga qarshi kurashishga o'zini-o'zi yo'naltirish. Ta'lim muassasasi yoshlar jamoasining tashabbuskor guruhlarida, valantyorlik harakatlarida, o'z

			fikr mulohazali va mustaqil qarashlari (ijtimoiy loyihalar, targ‘ibot guruhlari, seminar-treninglar) bilan ishtirok etish;
4	Oldiga qo‘ygan maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan axborotni olish, o‘zlashtirish va foydalanish; - axloqiy fuqarolik hatti-harakatlarni amalga oshirish; - jamiyatga va undagi o‘z hulqiga ma’suliyatli munosabatni ifodalash; -o‘zining yoki boshqa insonlarning xulqini axloqiy, vatanparvarlik, fuqarolik jihatidan baholay olish. Vijdonlik, halollik, adolat tushunchalariga asoslangan	Refleksiv-kreativ	O‘z fuqarolik majburiyatlarini bajarish, jamoat va davlat tashkilotlari faoliyatida muhim ijtimoiy loyihalar va dasturlarini amalga oshirishda ko‘rsatish; davlat va jamoat farovonligiga yo‘naltirilgan yuqori professiohallik va faoliyatidagi xizmat majburiyatlarini namunaviy bajarish. O‘z fuqorolik

holda maqsad va vositalar tanloviga ongli yondashuv; -tanqidiy va har tomonlama fikrlashni bilish, o‘z huquqini boshqa insonlarning hatti-harakatlari bilan bog‘lashni bilish va baholash. -o‘zini-o‘zi nazorat qilish		pozitsiyasini aniq anglash va baholash, ijtimoiy-siyosiy hayot hodisa va jarayonlarda ishtiroki, - fuqarolik munosabatlarini jamiyat va davlat hayotida bo‘ladigan jarayonlar bilan bog‘liq ravishda tahlil qilish va tuzatish.
---	--	---

- o‘qituvchi shaxs sifatida harakatni boshlab beradi va unga talabalarni jalb etadi;
- o‘quvchi o‘qituvchidan ibrat olgan holda namuna asosida o‘z harakatini bajaradi;
- o‘qituvchining o‘quvchidan o‘zini-o‘zi boshqarishda individual harakatlari nazoratida ishtirok etadi;

O‘quvchilar o‘zini-o‘zi faollashtiruvchi, o‘zini-o‘zi uyushtirish reflektiv harakatlarini amalga oshiradi.

Shu tariqa, o'quvchilar ijtimoiy kompetensiyasining mazmunli ko'rsatkichlari individuallik sohalari orqali yangi islohotlar, o'zgarishlar, insonning kompetensiyalarini o'zlashtirishning zaruriy shart bo'lib xizmat qiladi. (yuqorida keltirilganlarni umumlashtirgan holda mazkur ko'rsatkichlar ifodalangan)

Olingan ilmiy-tahliliy ma'lumotlarni o'rganish jarayonida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqladik, uni biz obyekt uchun aktual bo'lgan pedagogik-psixologik operatsiyalar va ijtimoiy takomillashtirish faollashtirishdan iborat bo'lgan, ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ta'minlovchi pedagogik usullar va ko'rsatmalarni qo'llash bo'yicha faoliyat sifatida tushuntirdik. Ijtimoiy kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (individual yondashuv) tavsifining tahlili, shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning tarbiyasi nazariyasi va amaliyotining tahlili, ijtimoiy sifatlarini shakllantirish jarayoni individual yondashuvning asosiy omillari sifatida quyidagilarni belgilash imkonini berdi:

- o'quvchilarda ijtimoiy, pedagogik-psixologik, shaxsiy, jumladan fuqarolik sifatlarini takomillashtirish xususiyatlarini bilish;
- o'quvchilarni faol sifatida tarbiyalashga maqsadli yo'naltirish;
- o'quvchilarga zarur axborotni taqdim etish (fuqarolik huquq va majburiyatlari sohasidagi bilimlarni, ijtimoiy vaziyatlarni, demokratik islohotlarni va h.k.);
- o'quvchilarga o'quv mashg'ulotlarda maxsus yaratiladigan vaziyatlarga va mustaqil ta'lim olish vaqtdagi jamoatchilik faoliyatiga o'z tashabbuslari orqali jalb etish;

– o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarning ijtimoiy sifatlarini takomillashtirishga alohida yondashish.

Pedagogik tizimda yangi elementning paydo bo‘lishi, yangi axborot texnologiyalari ko‘p jihatdan uning funksiyalarini o‘zgartiradi va yangi pedagogik samaraga erishishga imkon beradi.

O‘qitishning yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchining kasbiy imkoniyatlarini ahamiyatli oshiradi, uning pedagogik kompetentligining chegaralarini kengaytiradi va demak, uning kasbiy faoliyatining mahsuldorligini oshirishga, ya’ni ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. O‘qituvchining boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha faoliyati strukturasini modelga muvofiq ravishda pedagogik ko‘ikmalar orqali ko‘rib chiqish ham juda e’tibot talab masalalardan biri sanaladi.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion davrning talablarini inobatga olgan holda, innovatsion ta’lim muhiti va uning qizi‘in jarayonlariga tayyorlash masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Hamda bu borada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida zamonaviy ta’limning innovatsion jarayonlaridan, innovatsion texnologiyalaridan xabardor qilish, ularda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakillantirishda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakillantirishda axborot kompetentligini ham rivoj toptirish, pedagogik tizimda ayni avqtda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakillantirishda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakillantirishda axborot kompetentligining o‘qituvchi shaxsida

aks etishi naqadar muhim ekanligini ham nazarim ham amaliy jihatdan anglashlariga imkoniyat yaratish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni oshirishning eng oldu o‘rinlarda turuvchi vazifalari deb aytish mumkin.

III BOB. TALABALARNING IJTIMOIIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI.

3.1. Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishning tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonlari

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2019-2022 yillarda Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg‘ona davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universitetining 2-kurs “Pedagogika va psixologiya” yo‘nalishi talabalari bilan olib borilgan. Takomillashtirilgan ta’lim texnologiyasi, metodika, turli metod, shakl va vositalarni qamrab olgan holda tashkillashtirilgan.

Monografiya yuzasidan tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda 2019-2022 yillarda tashkil qilindi va o‘tkazildi. Pedagogik tajriba-sinovning maqsadi oliy ta’lim muassasasi talabalarida “ijtimoiy kompetensiyalarni takomillashtirish” dan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun biz quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq:

- oliy ta’lim muassasalarining tanlab olingan sinflarini tajriba va nazorat sinflariga ajratish;
- ajratib olingan tajriba sinfi (TG)da takomillashtirilgan metodik modellardan foydalanib, nazorat sinfi (NG)da an’anaviy interfaol usulda mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- so‘rovnoma jarayonida baholash natijalarini to‘plash, tartiblash, matematik-statistik usullardan foydalanib hisoblash va xulosalar chiqarish.

Tajribada ko‘zda tutilgan maqsad va uni amalga oshirish vazifalariga ko‘ra tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi izlanuvchi ta’kidlovchi bosqichda talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni takomillashtirishga doir psixologik –pedagogik, ilmiy adabiyotlar o‘rganilib tahlil qilindi. Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy asoslari o‘rganib chiqildi, tadqiqotning maqsadi vazifalari aniqlandi; tadqiqotning obyekti hamda uning ko‘rsatkichlari

va unga mos mezonlar nazariy manbalar tahlil qilib o'rganildi. Tanlangan mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy kompetensiyasini takomillashtirish individual sifatlar darajalari orqali tahlil etildi va o'rganildi. Shu sohadagi ilmiy adabiyotlar va me'yoriy hujjatlar o'rganildi.

O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlar jarayoni tashkil etish va o'tkazish holati tahlil qilindi hamda uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati o'rganildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha o'quv jarayonida olib borilgan mashg'ulotlar orqali tashkil etish va o'tkazish bo'yicha pedagogik-ilmiy-tashkiliy muammo ekanligi ko'rsatib o'tildi. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati izlanuvchan bosqichda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish jarayonini tashkil etish va o'tkazish uchun so'rovnoma ishlab chiqildi. So'rovnoma belgilangan oliy ta'lim muassasalari talabalarining biriktirib olingan guruhlarida o'tkazildi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishda turli qiyinchiliklarga duch kelindi. Institut talabalari o'z fikri va ijtimoiy faolligini ko'rsatishda avvalo o'quv mashg'ulotlarida tashabbuskorlikni, tayyorlov bosqichida shug'ullangan talabalar bilan mashg'ulot jarayonida shuningdek, jamoat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishi o'qituvchilar tomonidan berilgan vazifalarni o'zlashtirishi bilan guruhlar orasidagi farq va qiyinchiliklar ta'kidlab

o'tildi. Olib borilgan o'quv mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy faolligini oshirishda mashg'ulot jarayonida mustaqil tayyorlangan taqdimotlar , ijtimoiy videoroliklar, jamoat tashkilotlari faoliyatida erishgan yutuqlarini ko'rsatuvchi videoroliklardan foydalanish, darslarni interfaol metodlar asosida qiziqarli tashkil etishlari, undan unumli foydalana olishlari orqali talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda turli interfaol metodlar bilan asosan talabaning ijtimoiy faolligini o'stirishga oid bilimlar, mashg'ulotlar, seminar-treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Monografiyaning ikkinchi shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlar, mazmuni, tizimli ishlab chiqildi. Ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar kesimida olib borilishi va mashg'ulotlar asosida tashkil etish bo'yicha ma'lumotlar tizimlashtirildi va bunga imkon beruvchi mustaqil ta'lim mashg'ulotlar, o'quv-metodik tavsiyalar, o'quv mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalar, o'quv jarayoniga tatbiq etildi hamda sinab ko'rildi.

Shu jumladan, o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish pedagogik, nazariy yondashuvlar asosida tashkil etildi hamda mashg'ulotlar ilmiy- amaliy jihatdan tahlil qilinib, umumlashtirilib, yagona umumlashgan pedagogik ko'rsatmalar berildi. O'quv jarayonida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini, ijtimoiy faolligini, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini

takomillashtirish- ga qaratilgan ijtimoiy kompetensiyasi modelidan keng foydalanib, amaliyotga tatbiq etildi va sinab ko‘rildi.

Ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni va individual yondashuv tizimi asosida pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazildi. Shuningdek, tanlab olingan oliy ta’lim muassasasi tajriba guruhlarida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalasiga qaratilgan mustaqil topshiriqlar berildi, bajarish jarayonlari kuzatib borildi. Topshiriqlarni bajarishdagi muammo va qiyinchiliklar hamda ko‘p takrorlangan muammolar yozib borildi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish doirasini aniqlashga qaratilgan og‘zaki so‘rovlar, suhbatlar o‘tkazildi hamda ularning natijalari tahlil qilindi.

Uchinchi-yakuniy bosqichda ilmiy ishining tajriba-sinov natijalari umumlashtirildi, tanqidiy tahlil qilinib, tadqiqot maqsadi va ilmiy farazining ishlab chiqilganligi, asoslanganliklari, o‘quv mashg‘ulotlar jarayonida ishlab chiqilgan mashg‘ulot texnologiyalari asosida tekshirib ko‘rildi. Olib borilgan tadqiqot ishining asosiy xulosasi ishlab chiqildi hamda bu xulosa ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo‘yicha turli topshiriqlar asosida yaratilgan.

Tajriba-sinov ishi mos pedagogik shart-sharoitlarning tavsifiga ega, biz ishlab chiqqan model orqali talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish texnologiyasining samaradorligini tekshirishga yo‘naltirilgan edi.

Olingan ma’lumotlar, o‘qituvchilar o‘quvchilarning kompetensiyasini takomillashtirishni asosan o‘quv fanlarini o‘qitishning

fanga oid yo‘nalganligini kuchaytirish, oliy ta’lim muassasasi o‘quv rejasiga fakultativ mashg‘ulotlar, ijtimoiy fanlarning elektiv kurslarini kiritish (falsafaga, fuqarolik jamiyati, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi: Fuqarolik jamiyati, Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar va hk.), auditoriyadan tashqari vatanparvarlik tarbiyaviy ishlarini (olimpiadalar, to‘garaklar, konferensiyalar, ekskursiyalar va b.q.) tashkil etish orqali shug‘ullanishlari, shu bilan birga o‘qitish jarayonida ijtimoiy kompetensiyasini maqsadga muvofiq rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi.

Guruh rahbarlarining vatanparvarlik, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishi, fuqaro sifatlarining mavjud muammolarini muhokama qilish, o‘quvchilarning ijtimoiylashuvlari, ularda fuqarolik rollarini o‘zlashtirishlari bo‘yicha amaliy ishlarni o‘tkazishlari tadqiqot muammosining echimiga yaqin hisoblanadi.

Shubhasiz, pedagoglar ta’kidlaganlaridek, bunday ish shakllari talabalarning fuqarolik jamiyatidagi o‘z rollarini anglashlariga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, o‘quvchilardada fuqarolik jamiyatida hayot uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar, kompetensiyalar, jumladan ijtimoiy fuqarolik ishtiroki motivatsiyasini takomillashtirish bo‘yicha maxsus va tizimli ishlar olib borish tadqiqot ishimizning dolzarbligini aks ettiradi.

Tajriba-sinov ishida mustaqil o‘zgaruvchilar, biz ishlab chiqqan ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirishning modeli va texnologiyasida ifodalangan, oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish pedagogik shart-sharoit

hisoblanadi. Shuning uchun, bu bilan bog'liq o'zgaruvchilar bu individual yondashuv va ijtimoiy kompetensiyasi komponentlaridir.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun tanlab olingan oliy ta'lim muassasasi talabalari kontingenti o'rganib chiqildi va 2-kurslar tajriba va nazorat guruhlarini sifatida tanlab olindi.

Tadqiqot olib borilgan davrida amalga oshirilgan muhim ishlardan biri tajriba-sinov ishlariga respondentlarni jalb qilish va ulardan tajriba hamda nazorat guruhlarini shakllantirish bo'ldi. Tajriba-sinov ishlariga oliy ta'lim muassasasi talabalaridan jami 341 nafar respondent-talabalar jalb etildi. Tajriba-sinov ishida "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanidan 2019-2020 o'quv yili mobaynida 341 nafar (Toshkent davlat pedagogika universitetidan -112 nafar, Guliston davlat universitetidan-121 nafar, Farg'ona davlat universitetidan-108 nafar), 2020-2021 o'quv yili mobaynida 296 nafar (Toshkent davlat pedagogika universitetidan-102 nafar, Guliston davlat universitetidan-98 nafar, Farg'ona davlat universitetidan-96 nafar), 2021-2022 o'quv yili mobaynida 294 nafar (Toshkent davlat pedagogika universitetidan-112 nafar, Guliston davlat universitetidan-121 nafar, Farg'ona davlat universitetidan-108 nafar), talabalar ishtirok etdi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozim, tajriba-sinov ishlarining o'ziga xos murakkablik kasb etganligini aytib o'tish maqsadga muvofiq. Bu murakkablik quyidagilarda ko'rinadi:

- tahsil olayotgan talabalarning turli yoshda tahsil olishi natijasida ularning ijtimoiy farqlar seziladi;

- oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan har bir talaba-yoshlar avvalo maktab va oilada har xil muhitda tarbiya ko'rgan, shuning uchun kam ijtimoiy bo'lgan talabalarning individual xususiyatlari faolligini

oshirish hamda ularda demokratik davlat qurish g'oyasini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning yashash muhiti hamda ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo'ladi. Qaysidir talaba oilasida doimo ijtimoiy faollik bo'yicha muhokama bo'lsa, boshqasida uning aksi kuzatiladi. Shu jihatdan talabaning ijtimoiy faollik ko'rsatishida olingan bilimlarini o'zlashtirish, jarayonida bir qancha qiyinchiliklar kuzatilishi tajriba-sinov ishi natijasini umumlashtirish va tahlil qilishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan jami o'rtacha 352 nafar respondent-talabalarni tasodifiy tanlov tamoyiliga muvofiq quyidagi sonlarda tajriba va nazorat sinflariga biriktiriladi.

- 1) tajriba guruhlariga 170 nafar;
- 2) nazorat guruhlariga 171 nafar.

Tajriba sinov uchun taqdim etilgan konsepsiya quyidagi pedagogik metodlar asosida shakllantirildi:

1. Respondent-talabalar uchun mo'ljallanib ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarining mavjud darajasini rivojlantirishga yo'naltirilgan so'rovnoma ishlab chiqildi. Tajriba-sinov davrida mavjud tahlil etish jarayonini imkon qadar xolis baholash maqsadida ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ochiq so'rovnomalardan foydalanildi.

2. Suhbat, savol-javob, ijtimoiy faollikka jalb etuvchi rolli o'yinli pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan (Menga so'z bering, Skarabey) foydalanildi. Ta'lim tajribasi anketa so'rovlarini suhbat,

